


87
U-730

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



Falsafa

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**


L.R. USMONOVA, H. ABDUMAJIDOVA



F A L S A F A

Talabalarning seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishlari va mustaqil ishlarni bajarishlari uchun O'quv - uslubiy qo'llanma

O'quv - uslubiy qo'llanma Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ilmiy Kengashining 22-fevral 2023-yilda bo'lib o'tgan yig'ilishidagi "7"- son bayonnomasiga ko'ra tasdiqlanib, chop etishga ruxsat berilgan.



Tuzuvchilar:

L.R.Usmonova - Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida f.f.d.(Phd)

H.Abdumajidova - Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A.N.Maxmudova - Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida f.f.d. (Phd), dotsenti

N.A.Kuziyev - Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi, manbaashunosligi va falsafa" kafedrasida f.f.d., (Phd)

Annotatsiya. Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashtirish davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish, xalqimiz ma'naviy merosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi. Fanning barcha sohalari singari falsafada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, ularga munosabat bildirishni shakllantiradi.

O'quv-uslubiy qo'llanmada falsafaning mavzulari bo'yicha talabalar seminar darslariga tayyorgarlik ko'rishlariga yo'nalish, o'rganilayotgan mavzu bayon etilgan adabiyotlar ro'yxati, har bir mavzuga doir mustaqil o'rganish mavzulari, takrorlash uchun savollar, mavzularni yanada aniqroq tushunish uchun sxemalar, slayd-prezentatsiyalar tarzida bayon etilgan hamda bilimlarini sinab ko'rish uchun test topshiriqlari keltirilgan holda bayon etilgan.

Fikrimizcha, o'quv-uslubiy qo'llanma professor-o'qituvchilarga o'quv materialining tuzilishini ishlab chiqishda, talabalarga mustaqil ishlarga tayyorlanish jarayonida, seminar mashg'ulotlariga va fan bo'yicha yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi.

Mualliflar o'quv-uslubiy qo'llanmani tayyorlash davomida O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda nashr qilingan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va lug'atlardan keng foydalandilar.

O'quv-uslubiy qo'llanma SamDTU Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan №7 22 fevral 2023 yil

Ilmiy Kengash kotibi, t.f.n., dotsenti



Ochilov U.U.

KIRISH

Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globalashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish, xalqimiz ma'naviy merosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi. Fanning barcha sohalari singari falsafada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Bugun falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, estetik munosabatda bo'lish, axloqiy qadriyatlarga amal qilish va zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Falsafa fani hamma zamonlarda, dunyoning barcha mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarida o'rganilishi kerak hisoblangan fundamental fanlardan biri bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish"¹ zarurligini ta'kidlab o'tdi. Ushbu ishlarni amalga oshirish yoshlarimizda dunyoqarashni kengaytirish zarur. Dunyoqarashni kengayishida falsafaning o'rni beqiyos. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov falsafa xaqida shunday ta'kidlagandi: "Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam - meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar-hayotning, o'z kasbining ma'no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olish kerak. Shu bois tarixchi bo'lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo'lish darkor"².

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza.uz

² Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish-bugungi kunning ustuvor vazifasidir //Inson. uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat – T.: O'zbekiston, 2006.-B. 117.

Falsafa fani oliy ta'lim muassasalarida fundamental fanlardan sanalganligi bois, bugungi kunda barcha sohalarda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalaridan biri bo'lmish nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qilishda o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishdir. Shu nuqtai nazardan Falsafa fanidan seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishga va mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltirilgan uslubiy qo'llanma talabalar bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda hamda dars jarayonining mazmunini boyitishda xizmat qiladi.

Falsafa fanidagi mavzularni o'rganishda reja asosida mantiqiy yondashilganligi, nimalarga ahamiyat berish lozimligi, tavsiya qilingan mavzularni o'rganishda qanday adabiyotlardan foydalanish mumkinligi, har bir mavzu slayd-prezentatsiyalar asosida sxematik tarzda ko'rsatilishi, mavzuni takrorlash uchun savollarning qo'yilganligi va mavzuni mustaxkamlash uchun testlarning mavjudligi ushbu qo'llanmaning qimmatini oshiradi deb o'ylaymiz.

1-mavzu: Falsafaning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Sharq va G'arb falsafasining vujudga kelishi, rivojlanish tarixi

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Falsafa atamasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari.
2. Dunyoqarashning tuzilishi va tarixiy shakllari
3. Falsafa fanining predmeti va funksiyalari
4. Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari, uning xalqaro aloqalarni tashkil etishdagi ahamiyati.
5. Falsafaning tarixiy-sivilizatsion xilma-xilligi. Sharq falsafasi.
6. Falsafaning tarixiy-sivilizatsion xilma-xilligi. G'arb falsafasi.
7. Qadimgi Sharq falsafasi
8. Antik Yunoniston falsafasi
9. O'rta asrlar Yevropa falsafiy tafakkuri rivojlanishi
10. O'rta asr Sharq falsafasi
11. Yevropa Uyg'onish davri falsafasi
12. Yangi davr falsafasi
13. Eng yangi davr falsafasi

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda falsafa atamasining mohiyati va mazmuni, uning tarixiy va zamonaviy talqinlari, falsafaning bahs mavzulari va ularning xilma-xil talqinlari o'rganiladi. Falsafiy mavzularni ilmiy-nazariy o'rganish va tadqiq etish masalalari, falsafada milliylik va umuminsoniylik, Jahon falsafasi taraqqiyotida milliy falsafiy maktablarning o'rniga e'tibor qaratish lozim.

Dunyoqarash tushunchasini tahlil qilishda uning mohiyati, mazmuni, individual va tarixiy shakllari alohida e'tibor berib, falsafiy dunyoqarashning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafiy bilimlar tizimi, uning o'ziga xosligi, tarixiy o'zgarishi va mazmunan boyib borishini tahlil qilishda falsafiy bilimlarning asosiy yo'nalishlari va ularning g'oyaviy ildizlariga e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy komillik, milliy istiqloлга sodiqlik ruhida tarbiyalashda falsafaning ahamiyatini o'rganish kerak bo'ladi.

Sharq - jahon sivilizatsiyasining markazlaridan bo'lgan qadimgi Misr va Bobildagi falsafiy fikrlar, Iudaizm dini va falsafiy ta'limoti, qadimgi Hind falsafasi: vedalar va upanishadalar, jaynizm, hinduizm va buddizm, qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiyalik va daosizm ta'limotlarini o'rganishdan boshlanadi. Antik dunyo falsafasida qadimgi davr

allomalardan Geraklit, Pifagor, Suqrot, Aflotun, Levkipp, Epikur, Demokrit, Aristotel, Lukresiy Kar, Senekalarning dunyo ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish lozim bo'ladi.

O'rta asrlar G'arb falsafasi rivojiga Avreliy Avgustin, Per Abilyar, Foma Akvinskiy, Nikolay Kuzanskiy, Nikolay Kopernik, Jordano Brunolarning qo'shgan hissalarini, appologetika va patristika, nominalizm va realizm, teotsentrizm va sxolastika g'oyalarini o'rganish muhim hisoblansa, Sharq falsafasida Markaziy Osiyo falsafiy fikrlar rivojida ijtimoiy-siyosiy sharoitning o'ziga xos xususiyatlarini, Moniy va Mazdak ta'limotlari, allomalardan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Arabiy, G'azzoliy, Kubro, Yassaviy, Naqshband, Taftazoniy va Jurjoniylarning falsafiy qarashlarini o'rganish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, G'arb va Sharq tafakkur uslubining o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

O'rganish qulaylik tug'diradi. Bu davr allomalaridan F.Bekon va T.Gobss, R.Dekart va B.Spinoza, G.Leybnis va J.Lokk, Volter va Russo, Didro va Golbax, I.Kant va G.Gegel, F.Shelling va L.Feyerbaxlarning qarashlarini o'rganish lozim. Eng yangi davrda vujudga kelgan oqim va yo'nalishlardan, pozitivizm, neopozitivizm, ekzistensializm, ssientizm, antissientizm, neotomizm, pragmatizm, germenevtika, strukturalizmlarni ma'no-mazmunini o'rganish, allomalardan A.Shopengauer, F.Nisshe, K.Popper, M.Veber, T.Parsons, P.Sorokinlarning falsafiy qarashlarini kerak bo'ladi.

Jadvalga va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi faylasuflarning darslik va o'quv qo'llanmalari, asar va risolalarida yoritib berilgan:

1. Falsafa. E.Yusupov. – T.: 1999.
2. Falsafa: Ma'ruza matnlari. – T.: 2000.
3. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: 2005.
4. Falsafa asoslari: Darslik. – T.: 2005.
5. Falsafa. S. Mamashokirov Tahriri ostida. - T.: 2005.
6. Falsafa: Darslik. – T.: 2006.
7. Falsafa. M. Axmedova tahriri ostida. - T.: 2006
8. Falsafa ensiklopedik lug'at. M.Abdullaeva tahriri ostida –T.: 2010.
9. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008.
10. G.Skirberkk, N.Gile. Falsafa tarixi.– T.: 2002.
11. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya pod redaksiyey Fayzullaeva O. - T.: 2000.

12. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: 2003.
13. Yo'ldoshev va b. Qadimgi va O'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi: O'quv qo'llanma. – T.: 2003.
14. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. – T.: 2004.
15. G'arb falsafasi. Q.Nazarov tahriri ostida– T.: Sharq, 2005.
16. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: 2008.
17. Haqiqat manzaralari. S.Jo'raeva tarjimasi.– T.: 2007.

Mavzuga doir savollar

1. «Falsafa» tushunchasining mazmuni va mohiyati qanday?
2. Falsafaning predmeti va jamiyatdagi rolini tushuntirib bering.
3. Dunyoqarash tushunchasi va dunyoqarashning tarixiy shakllari qanday?
4. Falsafaning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
5. Qadimgi va o'rta asrlar falsafasi allomalarining falsafiy qarashlarini aytib bering.
6. Qadimgi va o'rta asrlarda qanday falsafiy oqim va maktablar faoliyat ko'rsatgan?
7. Yangi va eng yangi davr falsafasi allomalarining falsafiy qarashlari qanday bo'lgan?
8. Yangi va eng yangi davrda qanday falsafiy oqimlar mavjud bo'lgan?

2-mavzu: Falsafa tarixida borliq falsafasi. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish amaliyoti: yutuq va kamchiliklar

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Borliq - falsafa kategoriyasi
2. Falsafada substansiya va materiya muammosi
3. Makon va vaqt, harakat va rivojlanish
4. Tabiat borlig'i
5. Inson borlig'i

Borliq falsafasi

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon "borliq" va "yo'qlik" haqida bahs yuritib kelishgan hamda ko'plab asarlar yozishgan. Borliq falsafaning predmetlaridan biri hisoblanib, uni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastlab, ontologiya tushunchasini bilish, borliq tushunchasining ma'no va mazmunini tushinish, uni kategoriya sifatida o'rganish, falsafa tarixida borliq muammosining qo'yilishini tahlil qilish, borliq shakllari bo'lmish, tabiat borlig'i, inson

borlig'i, ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq, virtual borliq tushunchalarini farqlash, borliq va yo'qlik dialektikasini tahlil qilish lozim bo'ladi.

Borliq muammosiga substansional yondashuv falsafadagi eng qadimgi muammolardan biri sanaladi. Substansiyani o'rganishda substrat tushunchasining ma'no-mazmunini tushinib olish lozim bo'ladi. So'ngra, Substansiyaga monistik, materialistik, idealistik, dualistik va plyuralistik yondashuvlarni, Substansiyaning xususiyatlarini, universallik va yagonaliklarni o'rganib chiqiladi. Materiyaning o'rganishda uning shakllaridan boshlab, materiyaning tashkil topishi, moddiy tizimlar, atributlarning mazmuni, organik va noorganik, ijtimoiy tizimlarni, dunyoning yaxlitligi va birligini tatqiq qilish kerak. Olam xususida, kengayuvchi va harakatdagi olam gipotezasi, dunyoning chekliligi va cheksizligi, ekstensiv va intensiv cheksizlik, cheklilik va cheksizlikning ziddiyatlarini o'rganib chiqish lozim.

Makon va vaqt, harakat va rivojlanish borliqning fundamental shakllarini tashkil qiladi. Ularsiz borliq mavjud emas. Makon va vaqt masalasini o'rganishni falsafa tarixidan boshlash lozim. Allomalarning makon va vaqt to'g'risidagi talqini, unga substansional va relyatsion yondashuvlarini o'rganish talab etiladi. Makon va vaqtning dinamik va statik konsepsiyalarini, makonning ko'p o'lchovlilik, ijtimoiy makon va vaqt tushunchalari, makon va vaqtning harakatdagi materiyaga bog'liqligi, makon va vaqtning metrik hamda tipologik xossalari, izotropligi va bir xilliligini o'rganish lozim.

Olam paydo bo'libdiki doim harakat va rivojlanishda. Ularni o'rganishni harakat tushunchasining mohiyatini ochishdan boshlanadi. Falsafa tarixida olimlarning harakat xususidagi talqinini o'rganish, harakat va o'zgarishning umumiy xususiyatini o'rganish, harakat va harakatsizlikning o'zaro nisbatini farqlay olish, harakat tiplari va shakllarini ko'rib chiqish, harakatning abadiyligi, mutlaqligi va sokinlikning nisbiyligini o'rganish lozim bo'ladi.

Tabiat tushunchasi, uning falsafiy mohiyati va mazmuni, naturfalsafa - tabiat falsafasiga alohida e'tibor qaratiladi. Jonli va jonsiz tabiatning bir butunligi, uzviy aloqadorligi, hayot, uning qadr-qimmati muammosi, yerda hayotning vujudga kelishi to'g'risida dunyoviy va diniy qarashlarni o'rganish kerak.

Tabiat va jamiyat, tabiiy va sun'iy muhit, ularning o'zaro aloqasi, tabiat - jamiyatning yashash sharti, jamiyatning tabiatga ta'siri. Tabiatning umumbashariy taraqqiyoti doirasida yerdagi hayot va biosotsial evolyusiyaning o'ziga xosligini ko'rib chiqish lozim.

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari va falsafa tarixida inson borlig'iga munosabat; Jon haqidagi ta'limot; Individuallik borlig'i; Ongning tabiati; Ong va jonning tenglashtirilishi; Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi; Ongning strukturasi va funksiyalari; Ijtimoiy jarayonlarda onglilik va ongsizlikning namoyon bo'lishi; Ongsizlik tabiati; Individual ong borlig'i; Ijtimoiy ong borlig'i kabilarni o'rganish kerak bo'ladi.

Bizni o'rab turgan barcha tirik va notirik narsalar tabiatni tashkil qiladi. Tabiatni o'rganishni tabiat tushunchasi, uning keng va tor ma'nolaridan boshlash kerak bo'ladi. Falsafa tarixida tabiatga munosabat, tabiat va jamiyatning aloqadorligi, tabiiy qonunlar, ijtimoiy ekologiya, ekologiyaning kelib chiqishi, ekologiya muammolari, biosfera va noosfera, inson va noosfera, hamda koevolyusiya masalalari o'rganiladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. Falsafa. E.Yusupov. – T.: 1999.
2. Falsafa: Ma'ruza matnlari. – T.: 2000.
3. Falsafa asoslari: Darslik. – T.: 2005.
4. Falsafa: Darslik. – T.: 2006.
5. Falsafa. M. Axmedova tahriri ostida. - T.: 2006.
6. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: 2005.
7. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.:2005.
8. Falsafa ensiklopedik lug'at. –T.: 2011.
9. Qurbonova L. Borliq falsafasi. –Andijon: ADU, 2009.
10. Falsafa ensiklopedik lug'at. M.Abdullaeva tahriri ostida –T.: 2010.

Mavzuga doir savollar

1. Borliq nima?
2. Borliqning xususiyatlarini ajratib bering.
3. Substansiya va materiya deganda nimani tushunasiz?
4. Fazo va vaqtning topologik va metrik xususiyatlari qanday?
5. Rivojlanish nima?
6. Tabiat va jamiyat falsafasini bilasizmi?
7. Inson borlig'ini qanday bilish mumkin?

3-mavzu: Falsafa tarixida sivilizatsiyaga turli yondashuvlar tasnifi (al Forobiy, Ibn Xaldun, N.Danilevskiy, O.Shpengler, A.Toynbi). Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Dialektika rivojlanish haqidagi ta'limot. Falsafada qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Dialektika va uning muqobillari
2. Rivojlanish, o'zgarish, taraqqiyot tushunchalari va turlari.
3. Qonun tushunchasi va qonunlarning turlari.
4. Alohidalik, xususiylik, umumiylik kategoriyalari
5. Sistema, struktura, element kategoriyalari
6. Mohiyat va hodisa, mazmun va shakl kategoriyalari
7. Sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif kategoriyalari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda, falsafada inson muammosi azaliy muammolardan biri sanaladi, inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini falsafa tarixida inson borlig'iga bo'lgan munosabatdan boshlash mumkin. Keyin esa, jon haqidagi ta'limot, ong va jonning tenglashtirilishi, ongning strukturasi va funksiyalari, onglilik va ongsizlik, individual va ijtimoiy ong, ratsionalizm va irratsionalizmning ongga bo'lgan munosabatlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Falsafiy muammolardan biri insondir. Bu muammoni o'rganishda falsafa tarixida insonning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlarni ko'rib chiqishdan boshlanadi. Inson muammosini ko'rib chiqishda Sharq va G'arb falsafiy ta'limotlarini o'rganish, falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, insonni tushunishda dualizm, monizm va teotsentrik yondashuvlarni tahlil qilish lozim bo'ladi.

Olamdagi narsa va hodisalar o'zaro aloqadorlikda rivojlanib, ularning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, rivojlanishi kabi masalalar qadimdan faylasuflar o'rtasida turli bahs va munozaralarga sabab bo'lgan. Bularni o'rganish falsafa tarixidan boshlanadi va rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasini talqin qilish, rivojlanish qonunlari sistemasini tuzish, o'zaro aloqadorlik va rivojlanishning bir-biridan farqli jihatlarini ko'rib chiqish, bog'lanishlarning turlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Tabiat va jamiyatda narsa hamda hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishi ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sirga asos bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, rivojlanish, o'zgarish va

taraqqiyot tushunchalarini bir-biridan farqli tomonlarini, rivojlanish va taraqqiyot tushunchalarining farqini, taraqqiyotning turlarini, o'zgarish tushunchasining ma'no-mazmunini tushunib yetish talab qilinadi.

Dunyoning mavjudligi botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iborat bo'lib, bu takrorlanishlar o'z mohiyati, xususiyatlarini saqlab qolganliklari bilan qonun va qonuniyat tusini olgan. Qonun kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchalardan biridir. Uni o'rganishda biz dastavval, qonun tushunchasi mazmunini, qonunlarning turlarini, tabiat va jamiyat qonunlarini, fan qonunlarini, falsafa qonunlarini o'rganishimiz zarur bo'ladi. Falsafa qonunlarining asosiy shakllari bo'lmish, qarama-qarshilik va ziddiyat, ayniyat va tafovut, miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlari dialektikasi, inkomi-inkor, sakrash kabilarni o'rganishimiz lozim bo'ladi.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlari: fan kategoriyalari, xususiy ilmiy kategoriyalar, falsafa kategoriyalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Falsafa tarixida kategoriyalarga turli munosabatlarda bo'lgan va sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Buni o'rganishda dastlab sistema, struktura, element tushunchalarining mazmunini, so'ngra sistemalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ayrimlik va yakkalik, xususiylik va umumiylik, butun va qism kabilarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Keyin esa, mazmun va shakl, mohiyat va mavjudlik, mohiyat va hodisa dialektikasi, sabab va oqibat dialektikasi, sabab tushunchasi, bahona va sharoit, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, imkoniyatlarning turlar, formalizm kabilarni o'rganish talab etiladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. Falsafa. E.Yusupov. – T.: 1999.
2. Falsafa: Ma'ruza matnlari. – T.: 2000.
3. Falsafa asoslari: Darslik. – T.: 2005.
4. Falsafa: Darslik. – T.: 2006.
5. Falsafa. M. Axmedova tahriri ostida. - T.: 2006.
6. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: 2005.
7. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.:2005.
8. Falsafa ensiklopedik lug'at. –T.: 2011.
9. Qurbonova L. Borliq falsafasi. –Andijon: ADU, 2009.
10. Qurbonova L. Inson falsafasi. –Andijon: ADU, 2009
11. Falsafa ensiklopedik lug'at. M.Abdullaeva tahriri ostida –T.: 2010.

Mavzuga doir savollar

1. Rivojlanish nima?
2. Rivojlanish va taraqqiyotning farqi nimada?
3. Qonun nima va qonunning qanday turlari bor?
4. Falsafiy kategoriyalardan qaysilarini bilasiz?
5. Falsafa kategoriyalarini tasniflang.
6. Sabab va oqibatni o'rganuvchi falsafiy ta'limotlarni bilasizmi?
7. Sakrash nima?
8. Alohidalik, xususiylik, umumiylik kategoriyalarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
9. Sistema va uning turlari qanday?
10. Struktura, va elementning o'zaro aloqadorligini ko'rsatib bering.
11. Mohiyat va hodisa kategoriyasini tushuntirib bering.
12. Mazmun va shakl kategoriyalarining jamiyatdagi vazifalari bormi?
13. Sabab va oqibat kategoriyasini determinizm va indeterminizm bilan aloqasi bormi?
14. Zaruriyat va tasodif kategoriyasini izohlab bering.

4-mavzu: Falsafa tarixida bilishga oid qarashlar evolyusiyasi

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Bilish tushunchasi. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish.
2. Ratsional bilishning mazmun-mohiyati.
3. Falsafada haqiqat muammosi. Nazariya va amaliyot birligi
4. Bilish metodologiyasi va axborotlashuvning falsafiy asoslari

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Bilishni o'rganishda, bilish tushunchasining mazmunidan boshlab, gnoseologiyaning mazmuni va mohiyatini, bilish nazariyasining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlarini, optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm, bilim tushunchalari ma'nosini o'rganish, bilimning asosiy turlari va shakllari bo'lmish kundalik, amaliy, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy, shaxsiy, ijtimoiy bilim kabilarni o'rganish lozim.

Inson bilishida ratsional bilish asosiy o'rinni egallaydi. Hissiy bilish ratsional bilish uchun vositachi vazifasini bajarsa, intuitiv bilishni mantiqiy, ratsional asoslash qiyin. Shu jihatdan ratsional bilishning

mazmun-mohiyatini tushunish, ratsional bilishning chegaralarini ko'rib chiqish, ratsional va irratsional bilishning aloqasini o'rganish, ratsionallik va ratsionalizmning o'zaro farqini tushunish, ratsionallikning turlari bo'lmish neoratsionalizm, tanqidiy ratsionalizm va ilmiy ratsionallikni farqlay olish, ratsionallikka qadriyatli yondashuv kabilarni o'rganish talab qilinadi.

Falsafadagi azaliy muammolardan biri haqiqat masalasidir. Falsafada haqiqat muammosini o'rganishda dastlab, haqiqat tushunchasining ma'no mazmunini o'rganish talab qilinadi. Keyingi bosqichlarda falsafa tarixida haqiqatga bo'lgan munosabat, haqiqatning falsafiy asoslari, haqiqatning asosiy shakllari bo'lmish nisbiy, konkret va mutloq haqiqatlarni tushunib yetish kerak. Haqiqatni anglashda emotsiya, ideal, iroda, ishonch va shubhaning rolini ko'rib chiqish, verifikatsiya va falsifikatsiya tamoyillari va haqiqatni baholash mezonlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Fan va falsafada nazariya va amaliyotni birgalikda olib borish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalani o'rganishda ham dastlab amaliyot tushunchasini bilib olish, falsafa tarixida amaliyotga turli munosabatlarni ko'rib chiqish, amaliyotning tarkibiy qismlarini o'rganib chiqish foydadan holi bo'lmaydi.

Bilish ko'p xususiyatga ega bo'lib, turli jarayonlarni o'rganishda metod va metodologiyadan foydalaniladi. Shu tariqa bilish metodologiyasi vujudga keladi. Bu jarayonni tatqiq qilishda metod va metodologiya tushunchasini o'rganishdan boshlanib, fan va falsafa metodlari, umumilmiy metodlar, xususiy ilmiy metodlar, fanlararo tadqiqot metodlari, hozirgi zamon metodologiyasini o'rganish orqali maqsadga erishish mumkin.

Ko'plab olim va tadqiqotchilar XXI asr axborot asri deb talqin qilmoqdalar. Haqiqatdan ham bugungi kunimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozir biz axborotlashgan jamiyatda faoliyat yuritmoqdamiz. Bunday jamiyatda o'z o'rnimizga ega bo'lishimiz uchun tabiiyki axborot texnologiyalarini o'rganishimiz lozim bo'ladi va buni o'rganishni axborot texnologiyalari tushunchasidan boshlab, bugungi informatsion vaziyatni baholash, uning elementlarini bilish, axborotning boshqaruv jarayon bilan aloqasini tushunish, ilmiy axborot va yangi bilim qabul qilish shakli ekanligini tushunish, ijtimoiy jarayonlar axborotlashuvinig o'ziga xos jihatlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

5. Falsafa. E. Yusupov. – T.: 1999.
6. Falsafa: Ma'ruza matnlari. – T.: 2000.
7. Falsafa asoslari: Darslik. – T.: 2005.
8. Falsafa: Darslik. – T.: 2006.
9. Falsafa. M. Axmedova tahriri ostida. - T.: 2006.
10. Abdullaeva M.N. Milliy g'oya, ilmiy ijod va fan falsafasi. – T.: Falsafa va huquq, 2008.
11. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: 2005.
12. Nazarov Q. Bilish falsafasi.- T.: Universitet, 2005.
13. Bozarov D. Sinergetik paradigma. –T.: Tafakkur, 2010
14. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya – bilish falsafasi. - T.:“Noshir”, 2011.
15. Falsafa ensiklopedik lug'at. M.Abdullaeva tahriri ostida –T.: 2010.

Mavzuga doir savollar

1. Bilish nima?
2. Bilishning qanday usullari bor?
3. Haqiqatning turlarini bilasizmi?
4. Bilish metodologiyasini tushuntirib bering.
5. Ratsionallikning turlarini bilasizmi?
6. Axborotlashuv deganda nimani tushunasiz?
7. Germenevtika nima?
8. Jamiyat nima?
9. Jamiyatning qanday turlari mavjud?
10. Tarix falsafasi va falsafa tarixining farqini bilasizmi?
11. Insonning kelib chiqishi haqida qanday konsepsiyalarni bilasiz?
12. Ilmiy bashorat nima?

5-mavzu: Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi. Insoniyat tarixida tarbiya va ta'limning rivojlanish bosqichlari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Globallashuv tushunchasi
2. Globallashuvning sabablari va tasnifi
3. Mustaqil O'zbekistonda ekologiya masalalari va ularni hal qilish yo'llari

Globallashuv - yangi falsafiy mavzu sifatida tahlil qilishda uning fenomenini va ularning kurtaklarini, Global muammolarning ko'p jihatligini inobatga olish zarur. Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvida global tendensiyalarni anglashda Texnooptimizm, Texnopessimizm, Ekopessimizm kabi jarayonlar bilan aloqadorlikda olib qaraladi.

Global muammolarning mohiyati tushunishda muammolarning turli darajalari: xususiy, milliy, mahalliy, mintaqaviy muammolarni bir biridan farqlash lozim. Hozirgi davrning asosiy global muammolari: demografik tizim, ta'lim muammosi, sog'liqni saqlash muammosi, oziq ovqat muammosi, iqtisodiy rivojlanishning notekisligi, energetika va xom ashyo resurslari, urush va tinchlik muammolarini tahlil qilishda globallik mezonlariga e'tibor bering.

Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvi amalga oshirishda global ongini shakllanganlik darajasiga ahamiyati berib bunday jarayonlarda xususiy va umumiy manfaatlar kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. Falsafa. E. Yusupov. – T.: 1999.
2. Falsafa: Ma'ruza matnlari. – T.: 2000.
3. Falsafa asoslari: Darslik. – T.: 2005.
4. Falsafa: Darslik. – T.: 2006.
5. Falsafa. M. Axmedova tahriri ostida. - T.: 2006.
6. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin//.Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2.- T.:O'zbekiston,1996.-261.377-378
7. Umarov B.Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari-T.: "Ma'naviyat", 2006
8. Abdullaeva M.N. Milliy g'oya, ilmiy ijod va fan falsafasi. – T.: Falsafa va huquq, 2008.
9. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: 2005.
10. Nazarov Q. Falsafa asoslari-T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. –B. 677-678
11. Falsafa ensiklopedik lug'at. M.Abdullaeva tahriri ostida –T.: 2010.
12. Buyanov V.S. Summost globalizatsii // Globalizatsiya:Uchenik-M.:Izd-vo RAGS,2008-S.17-18

Mavzuga doir savollar

1. Globallashuv deb nimaga aytiladi?
2. Globallashuv jarayonlarida urush va tinchlik muammosi qanday?
3. Globallashuv keltirib chiqargan muammolarni sanab bering.
4. Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bormi?
5. Globallashuvning O'zbekistonga ta'siri bo'layaptimi?
6. Globalistika nimalardan bahs yuritadi?
7. Iqtisodiy globallashuv nima?
8. Ekologik muammolarga nimalar kiradi?

6-mavzu: Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Hukmning tarkibi va xususiyatlari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Mantiq faning predmeti va vazifalari
2. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari
3. Formal mantiqning asosiy qonunlari (tamoyillari)
4. Tushuncha
5. Hukm va uning turlari
6. Xulosa chiqarish
7. Muammo. Faraz. Nazariya

Mantiq faning predmeti va vazifalari

Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan hisoblanib, insonlarni to'g'ri fikrlashga o'rgatadi. Mantiq ilmini o'rganish ob'ekti tafakkur bo'lib, uni o'rganishni tafakkurni o'rganishdan boshlamoq lozim. Tafakkurning mohiyatiga yetish, tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlarini tushunmoq lozim. Mantiq fanining predmetini ajratib olish, mantiq ilmining asosiy masalalari va yo'nalishlarini, predmeti va tuzilishini, dialektik va matematik mantiq bilan o'zaro munosabatlarini, boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish tavsiya etiladi.

Har bir fan singari mantiq fani ham o'zining rivojlanish bosqichlariga ega. Buni o'rganishni qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishidan boshlash tavsiya qilinadi. Keyingi bosqichlarda Sharq va G'arb falsafasida mantiqqa oid fikrlarning rivojlanishi, sofistika va notqlik san'atiga ilmiy yondashish, Sokrat, Platon va Aristotelning mantiqqa doir qarashlarini ko'rib chiqish, so'ngra O'rta asrlarda mantiq ilmi rivoji, jumladan Markaziy Osiyda Al-Kindiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Jurjoniyning mantiqqa qo'shgan hissalarini, G'arbda F.Bekon, R.Dekart, Leybnis, I.Kant, Gegel kabi mutafakkirlarning mantiqiy qarashlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Inson jamiyatda faoliyat yuritar ekan, u doim to'g'ri va aniq fikrlashga intiladi. To'g'ri fikrlashda mantiq qonunlariga tayanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. To'g'ri fikrlashni tadqiq qilishda asosan quyidagilarni o'rganish talab qilinadi. Ya'ni, fikrning aniq ma'noga ega bo'lishi, izchil va ziddiyatsiz qurilishi va asosliligi. Fikrning to'g'riligi va haqiqatga erishishda ayniyat, nozidlik, uchinchi istisno va yetarli asos qonunlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Tafakkur shakllaridan biri tushunchadir. Tushuncha predmetlarning xossalarini, munosabatlarini, umumiy va muhim belgilarini bildiradi. O'z navbatida tushunchani bilish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi; tushuncha predmetlar sinfini aks ettiruvchi mantiqiy shakl ekanligi, tushunchani shakllantiruvchi usullardan tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlash (abstraksiyalash), umumlashtirishni o'zlashtirish. Shu bilan bir qatorda tushunchaning mazmuni va hajmini, ular o'rtasidagi teskari nisbat qonunini, tushunchalarning turlari bo'lmish yakka va umumiy, ayiruvchi va to'plovchi, mavhum va aniq, ijobiy va salbiy tushunchalarni, hamda tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Tafakkur shakllaridan yana biri hukmdir. Hukmni o'rganishda uning tarkibi va asosiy xususiyatlarini tadqiq qilish zarur bo'ladi. Keyingi o'rinlarda oddiy va murakkab hukmlarni, oddiy hukmlarning tarkibini, ajratib ko'rsatuvchi va istisno etuvchi hukmlarni, murakkab hukmlarning turlarini, ularni hosil qiluvchi mantiqiy bog'lamalarni, biriktiruvchi (kon'yunktiv), ayiruvchi (diz'yunktiv) va shartli (implikativ) hukmlarni, murakkab hukmlarning chin bo'lish shartlarini, hukmlar o'rtasidagi munosabatlarni, "Mantiqiy kvadrat" tushunchasi va sxemasini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mantiq ilmining asosiy va murakkab masalalaridan biri xulosa chiqarishdir. Xulosa chiqarishni o'rganishni birinchi bo'lib xulosa chiqarishning tuzilishidan boshlash lozim bo'ladi. So'ngra, xulosa chiqarish turlaridan deduktiv, induktiv va analogiya orqali xulosa chiqarishni ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Deduktiv xulosa chiqarishda asosan deduktiv xulosa chiqarish tushunchasi bilan tanishiladi va keyingi o'rinlarda xulosa chiqarishning qoidalarini, deduktiv xulosa chiqarishning shakllaridan hisoblangan qat'iy hukmlardan, hukmlarni o'zgartirish orqali xulosa chiqarish (bevosita xulosa chiqarish), aylantirish, almashtirish, **Sarim** qarama-qarshi qo'yish, "Mantiqiy kvadrat" bo'yicha xulosa chiqarish, qat'iy sillogizm figuralari orqali xulosa chiqarishni o'rganish taqazo etiladi.

Induktiv xulosa chiqarishda ham induktiv xulosa chiqarish tushunchasi bilan tanishiladi, so'ngra induktiv xulosa chiqarish turlaridan to'liq va to'liqsiz induksiyaning, to'liq induksiyaning xususiyatlarini, matematik induksiyaning, to'liqsiz induksiyaning tuzilishini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

Analogiya asosida xulosa chiqarishda uning turlari, xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasini, qat'iy va qat'iy bo'lmagan analogiyani tahlil qilish lozim bo'ladi.

Mantiq ilmining o'rganish ob'ektlaridan biri muammo, faraz va nazariyadir. Ularni alohida-alohida ko'rib chiqish talab etiladi.

Muammoni tushunish uchun uning bilishdagi ahamiyatini, muammoli vaziyat tushunchasini, savol va muammoni, ilmiy muamolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishini, ularning turlari va hal qilinishini o'rganish lozim bo'ladi.

Farazni bilish uchun farazlarni asosli bo'lishining mantiqiy-metodologik shartlarini, faraz turlarini, fanda o'zaro raqobat qiluvchi farazlarni, farazlarni tanlash shartlarini, farazni tasdiqlash usullarini ko'rib chiqish talab qilinadi.

Nazariyani o'rganishda nazariyaning ma'no-mazmunini, ilmiy nazariyaning maqsadini, tuzilishi va funksiyalarini, gipotetik-deduktiv nazariyalarning mohiyatini, aksiomatik tarzda qurilgan nazariyalarni tahlil qilish kerak bo'ladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. Yoqubov T. Matematik logika elementlari. -T.: O'qituvchi, 1996.
2. To'raev B.O. Logika: masalalar va mashqlar. -T., 2009.
3. Xayrullaev M., Haqberdiev M. Mantiq. -T.: O'qituvchi, 1993.
4. Sharipov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma, -T., 2004.
5. Fayzixo'jaeva D.E. IX-XI asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining mantiqiy qarashlarida isbotlash masalalari. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -T., 1999 y.

Mavzuga doir savollar

1. Mantiq qanday fan?
2. Mantiq fanining rivojlanish bosqichlarini bilasizmi?
3. Aristotelning mantiqqa doir qanday asarlari bor?
4. Mantiq ilmi til bilan bog'liqmi?

5. Mantiqning qanday turlari mavjud?
6. Mantiqning asosiy qonunlarini ko'rsating.
7. Sharqda mantiq ilmiga qaysi allomalar o'z hissalarini qo'shishgan?
8. Tushuncha nima?
9. Tushunchaning mazmuni va hajmi deganda nima tushuniladi?
10. Oddiy va murakkab hukmlarni ajratib bering.
11. "Mantiqiy kvadrat" deganda nimani tushunasiz?
12. Xulosa chiqarishning qanday turlari bor?
13. Deduktiv va induktiv xulosa chiqarishni asoslab bering.
14. Faraz va nazariyani bir-biridan farqi nimada?

7-mavzu: "Etika" fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari. "Estetika" fanining obekti va falsafiy mohiyati. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi: estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. "Etika" fani predmeti, asosiy tamoyillar va me'yorlari
2. Axloqshunoslik fanining rivojlanish tarixi
3. Etika fanining asosiy kategoriyalari
4. Shaxs axloqiy tarbiyasi
5. "Estetika" fani predmeti, obekti va falsafiy mohiyati
6. Estetik anglash, estetik munosabat va estetik faoliyat
7. Estetikaning asosiy kategoriyalari
8. San'at va uning turlari

Eng qadimgi fanlardan biri axloqshunoslikdir. Axloqshunoslik ya'ni "Etika" fanini o'rganishda uning predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasini o'rganishdan boshlash lozim bo'ladi. Keyingi o'rinlarda axloqning paydo bo'lishi va uning paydo bo'lishi haqidagi diniy, empirik, genetik konsepsiyalar, boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Axloqiy tamoyillarni o'rganishda ularning shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishini, ularga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashuvni, hamda Vatanparvarlik; insonparvarlik, erkparvarlik, fidoiylik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov kabilarni tahlil qilish lozim bo'ladi. Axloqiy me'yorlardan halollik va nopoklik, to'g'rilik va egrilik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, insoflilik va

insofsizlik, kamtarinlik va maqtanchoqlik, vafo va xiyonat, sadoqat va sotqinlik, mas'uliyat va loqaydlik kabilarni ko'rib chiqish talab etiladi.

Axloqshunoslik fanining rivojlanish tarixi Qadimgi Sharq va G'arbdagi axloq haqidagi qarashlarida ko'rish mumkin. Uni o'rganishni Qadimgi Shumer, Vavilon, Misr, Hindiston, Yunon, Rim, Xitoy va "Avesto"dagi axloqiy qarashlardan boshlash lozim. Ya'ni, mutafakkirlardan Suqrot va Aflotun, Arastu va Epikur, Tit Lukresiy Kar, Seneka va Epiktet, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Al-Farobiy, Ar-Roziy, Ibn Sino, Imom G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Foma Akvinskiy, Valla, Monten, Makiavelli, Spinoza, Lokk, Gegel, Feyerbax, Kant, Nisshe, V.Solovyov, N.Losskiy, Z.Freyd, E.From, J.P.Sartr, M.Gandi, Anbar Otin, Abdulla Avloniylarning ijodini ko'rib chiqish talab qilinadi. Diniy axloqiy manbalardan Qur'oni Karim va Hadisi Sharifni, pandnomalardan "Qobusnoma", "Axloqi Muhsiniy", "Bahoriston", "Guliston" kabilarni o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Barcha falsafiy fanlar singari etika fani ham o'zining mustaqil kategoriyalariga ega. Ular etika kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi. Etika kategoriyalaridan asosiysi muhabbatni o'rganish, uning turlaridan, Vatanga, millatga, ota-onaga, farzandga, insoniyatga, go'zalikka muhabbatni o'rganish talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, burch va mas'uliyatsizlik, vijdon va vijdonsizlik, nomus va benomuslik, baxt va baxtsizlik, haqiqatparvarlik va yolg'onchilik kabilarni o'rganish lozim bo'ladi.

Bugungi globalashuv davrida shaxsni axloqiy tarbiyalash davrning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bularni o'rganishni shaxs kamolotida ta'lim va tarbiyaning o'rni, bilim shaxsni maqsadga yo'naltiruvchi kuch ekanligi, axloqiy va jismoniy tarbiya uyg'unligi, tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari, sog'lom turmush tarzining axloqiy tarbiyadagi o'rni, shaxs axloqiy tarbiyasiga san'atning, ijtimoiy muhitning, "ommaviy madaniyat"ning ta'siri kabilarni o'rganish lozim bo'ladi.

"Estetika" nafosatni o'rganuvchi qadimiy fan hisoblanadi. Uni o'rganishni fanning ob'ekti va falsafiy mohiyatidan boshlash kerak bo'ladi. Keyin esa dunyoni estetik his qilishga mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni, "Estetika" haqidagi qarashlar taraqqiyoti tarixini, boshqa ijtimoiy fanlardan falsafa, etika, tarix, milliy g'oya, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya, sotsiologiya kabilar bilan aloqadorligini o'rganish lozim bo'ladi.

Estetik anglashni o'rganishda bu tushunchaning ma'nosi va individual xarakterini tushunish kerak bo'ladi. So'ngra insoniyat tarixida estetik anglash, munosabat va faoliyatning talqinini, estetik bilish va estetik qadriyatlar mutanosibligini, estetik anglashning asosiy elementlaridan estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg'u, estetik did, estetik baho, estetik ideal kabilarni o'rganish talab etiladi. Shu qatorda estetik faoliyatning ko'rinishlarini, ijodiy xarakterini, badiiy, ilmiy, diniy ijodiy, texnik faoliyatlarni ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

“Estetika” kategoriyalari o'zining falsafiy mazmuni-mohiyati bilan boshqa fan kategoriyalardan ajralib turadi. Ularni o'rganishni falsafa tarixida estetika kategoriyalari haqidagi tasavvurlardan boshlash lozim bo'ladi. Keyingi o'rinlarda estetikaning asosiy kategoriyalaridan go'zallikni, tarixda go'zallikka munosabatni, go'zallik haqidagi tasavurning o'zgaruvchanligini, go'zallikning san'atda namoyon bo'lishini, go'zallik va manfaat, go'zallikning muqobillari bo'lmish hunuklik, beo'xshovlik, nomutanosiblik kabilarni o'rganish kerak bo'ladi.

Estetikaning yana bir kategoriyasi ulug'vorlikni o'rganishda uning olamni estetik idrok etishga ijobiy ta'sirini, ulug'vorlikning ko'rinishlaridan tabiatdagi ulug'vorlik, jamiyat ulug'vorligi, inson ulug'vorligini, uning san'atda namoyon bo'lishini, ulug'vorlikning tubanlik, xudbinlik, sotqinlik bilan ziddiyatli jihatlarini tahlil qilish talab etiladi.

Estetikaning fojeaviylik (tragediya) kategoriyasini o'rganishda fojeaviylikning namoyon bo'lish shakllaridan jamiyat hayotida, inson faoliyatida, san'atda, badiiy asarlarda fojeaviylikni namoyon bo'lishi o'rganish zarur bo'ladi.

Kulgililik kategoriyasini tahlil qilishda estetik tafakkur tarixida kulgililikka munosabatni, kulgi va uning inson hayotidagi o'rmini, kulgining ob'ektlarini, kulgililikning namoyon bo'lish shakllaridan hajv, hazil, mutoyiba, kinoya, kesatiq, istehzolarni o'rganish, kulgililikning demokratik xususiyatini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

San'at va uning turlarini o'rganishni san'atning predmeti, maqsadi va vazifalaridan boshlash lozim. So'ngra buyuk mutafakkirlar san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rni haqidagi fikr-mulohazalarini o'rganish, san'atning xususiyatlari, tarixiylik, ma'joziylik, demokratik, milliy va umuminsoniylik kabilarni o'rganish talab etiladi. Keyingi o'rinlarda san'atning tamoyillaridan xalqchilik, haqqoniylik, ijodiylikni, san'atning turlaridan badiiy adabiyot, xalq amaliy san'ati, me'morchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino, musiqa, estrada, raqs, askiya, notiqlik san'ati singari tomonlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Mah mudov T. Komillik asrorlari. Hayotiy hikmatlar. –T.: Adolat, 2006.
4. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
5. Choriev A. Inson falsafasi. –T.: Chinor ENK nashriyoti, 2007.
6. Muh ammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Adab. – T.:Sharq 2008.
8. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik –T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
9. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet,2009.
10. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
11. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. –T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
12. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. –T.: Fan, 2009.
13. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2009 yil.
14. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
15. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). /Darslik. – T.: O'zbekiston, 1995.
16. Olloyorov N.V. Estetika /Uslubiy qo'llanma. – Samarqand. 2004.
17. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jaeva G. Estetika asoslari. O'quv qo'llanma. –T. : Cho'lpon, 2006.
18. Abdullaev M. Estetik madaniyat: nazariy-metodologik jihatlar. – T.:Fan, 2007.
19. Muhammadjonova L.A. Jadid mutafakkirlarining axloqiy-estetik qarashlari. /Uslubiy qo'llanma. – T.: O'zMU, 2007.
20. Umarov E. Teatr estetikasi. –T.: Chashma print, 2008

21. G'aybullaev O.M. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. –T.: Chashma print, 2008.
22. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika. 2-nashr. /uslubiy qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

Mavzuga doir savollar

1. Etika fanining ob'ekti nimani tashkil qiladi?
2. Etika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqlik tarafi bormi?
3. Etika fani qaerda vujudga kelgan?
4. Sharq va G'arb axloqshunosligining rivojlanish tarixi qanday?
5. Etika fani kategoriyalarini bilasizmi?
6. Shaxs tarbiyasida axloqning o'ri qanday?
7. Etiket nima?
8. "Estetika" fani predmeti, obekti va falsafiy mohiyati
9. Estetik anglash, estetik munosabat va estetik faoliyat
10. Estetikaning asosiy kategoriyalari
11. San'at va uning turlari
12. Estetika fani nimani o'rganadi?
13. Estetika fanining rivojlanish bosqichlarini bilasizmi?
14. Estetik ong va estetik did nima?
15. Estetik munosabat deganda nimani tushunasiz?
16. Estetikaning asosiy bosh kategoriyasi qaysi?
17. San'at nima?
18. San'atning qanday turlari mavjud?

8-mavzu: Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya xudojo'ylik tushunchalarining ma'nosi va ularning o'zaro aloqasi.

Diniy e'tiqod va ratsionallik. Islom dini, uning asosiy oqimlari va yo'nalishlari. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlar talqini, erkak va ayolning maqomi. Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli. Diniy fanatizmning asoslari va manbalari. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Din madaniyati fenomeni.
2. Dinlarning paydo bo'lishi va ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlari
3. Islomgacha Arabistondagi ijtimoiy siyosiy holat
4. Islom dinining vujudga kelishi va uning ta'limoti.
5. Qur'on va hadis-islom dinining manbalari

6. Diniy mutaasiblik (fanatizm)ning paydo bo'lishi, mohiyati, asoslari va manbalari
7. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari.

Dinshunoslik fani dinning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, uning ta'limotini, vujudga kelishi va shakllanishini o'rganadi. Bu fan jamiyat taraqqiyoti jarayonida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalar, mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, ibodatxona va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganadi hamda tahlil qiladi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida din madaniyatning fenomeni sifatida doimo muhim o'rin tutib kelgan. Din jamiyatdagi mafkura sifatida odamlarning bilimi, dunyoqarashi, e'tiqodining asosini tashkil qilib, jamiyat hayotida odamlarni birlashtirgan, uyushtirgan, ma'lum bir maqsadga yo'naltirgan. Din madaniyat fenomeni sifatida jamiyat hayotining barcha sohalariga iqtisodga, siyosatga, huquqqa, moddiy va ma'naviy madaniyatga, ma'naviyatga, san'atga, milliy mentalitetga, urf-odat va an'analarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan siyosatda din omiliga katta e'tibor qaratilib, dinning xususan islom dinining xalqimiz tarixi, ma'naviyati, madaniyatida tutgan o'rni masalasiga, milliy g'oyamizdagi dinlararo bag'rikenglik g'oyasini mamlakatimizda millatlararo totuvlik va tinchlik barqarorlikni ta'minlashda tutgan o'rni masalasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dinshunoslikda din, diniylik, dindorlik, diniy ong, diniy dunyoqarash, diniy ruhiyat, diniy his-tuyg'u, diniy kayfiyat, diniy g'oya, diniy mafkura, diniy faoliyat, diniy munosabat kabi bir qator tushunchalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda jamiyat hayotida mavjud bo'ladi. Dinshunoslikni o'rganishda dinning ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga, eng qadimgi diniy e'tiqod shakllari bo'lgan totemizm, fetishizm, animizm, sehrgarlik (magiya, shaman) dinlarining o'ziga xosligi, milliy davlat dinlariga, jahon dinlari bo'lgan buddaviylik, xristianlik va islom dinining mazmun-mohiyati va ta'limotini ochib berishga asosiy e'tibor qaratiladi. Politeizm ya'ni ko'p xudolik va monoteizm ya'ni yakkaxudolik dinlarning o'ziga xosligi, tarixiy taraqqiyotda rivojlanish xususiyatlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Islom dinining axloqiy manbalari Qur'oni Karim va Hadisi Sharif hisoblanadi. Islom falsafasida inson kamolotiga alohida urg'u berilgan. Ya'ni insonning shakllanishi uchun diniy bilimlar bilan bir vaqtda

dunyoviy bilimlarni puxta egallab xaq yo'ldan toymaslik, hayotda ezgu ishlar qoldirib, imon-e'tiqod va hidoyat yo'lida ulug' maqsadlar bilan ishlashga da'vat etilgan. Shaxsning odob-axloqining shakllanishida, shaxs va jamiyat munosabatlarida diniy ta'limot, xususan uning qadriyatlarini o'rni kattaligi o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". "Adolat" 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. Xalq so'zi. 2017 yil 11 noyabr, №228
3. Shavkat Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1. Toshkent - "O'zbekiston"-2018 y.
4. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari. T. "Ma'naviyat" 2008 y.
5. Islom ensiklopediya. – T.: TIU, 2017 y.
6. Qurbon Ali Jumaniyoz Ortiq o'g'li "Ma'naviyatning yetti xazinasini" T. "Sharq", 2013y.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom Universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi "Dinshunoslik asoslari". T. "TIU" 2013 y.
8. O'tkir Hasanboev "O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari". "TIU" nashriyot matbaa-birlashmasi T. 2014 y.
9. Aydarbek Tulepov. ISHID fitnasi. T.: "Movarounnahr". 2015 y.
10. Orif Ayupov, Dunyo siyosat jamiyat. Qayta to'ldirilgan 8-nashr, Guliston-2018 y.

Mavzuga doir savollar

1. Dinshunoslik fani nimaning o'rganadi?
2. Din va e'tiqod tushunchalarining ma'nosi va mohiyati nimadan iborat?
3. Dinning tarixiy shakllari va turlari haqida ma'lumot bering?

4. Dunyoviy davlatda dinga bo'lgan munosabat va uning huquqiy asoslari?
5. Ilk buddaviylik ta'limoti nimalardan iborat?
6. Xristianlikning qanday asosiy oqimlarini bilasiz?
7. Inson dinida inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g'oyalari haqida qanday fikrlar bayon qilingan?
8. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlar talqini, ayolning maqomi haqida bildirilgan fikr va g'oyalar?
9. Islom dinida ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas'uliyat to'g'risida qanday fikrlar ilgari surilgan?
10. Islom dinida sog'lom turmush tarzi targ'iboti haqida nima deyilgan?

9-mavzu: Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va shakllanish tarixi. O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari. Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning turlari

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish rejasi

1. Korrupsiya tushunchasi, Korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati va uning milliy hamda xalqaro huquqiy asoslari.
2. O'zbekistonda Korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi.
3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi.

“Korrupsiya” atamasi lotincha “sorrumpere-sorruptio” degan so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “ifloslangan”, “pora evazga og'dirish, buzilish, aynish, tanazzul, sotib olish, sotib yuborish, buzish, parchalash, sindirish, shikast yetkazish” degan ma'nolarni anglatadi. Bu atama, odatda mansabdor shaxs tomonidan unga ishonib topshirilgan vakolatlar va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun jamiyat tomonidan o'rnatilgan qonunlar va axloqiy tamoyillarga zid bo'lgan holda foydalanishni anglatuvchi tushuncha ekanligini o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar, O'ZQ-419 sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” qonunida: “Korrupsiya-shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday

nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"-degan ta'rif berilgan. Bu degani korrupsiya bu pul, qimmatbaho buyumlar ko'rinishida imtiyozlar olish uchun mansab vakolatlarini suiste'mol qilish, pora berish, pora olish, o'z vakolatlarini suiste'mol qilish, tijorat pora olish yoki boshqa shaxsning o'z rasmiy mavqeidan jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga xilof ravishda noqonuniy foydalanishidir.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" qonunining 7-moddasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarida belgilanganligi bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlarining vakolatlarini o'rganish tavsiya etiladi.

Jadval va prezentatsiyalarga e'tibor bering.

Yuqoridagi masalalar quyidagi darslik va o'quv qo'llanma, asar va risolalarda yoritib berilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". "Adolat" 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" qonuni. 2017 yil 3 yanvar, O'ZQ-419 son.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, baqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T- "O'zbekiston", 1998 y.
4. Burxanov Akmal. Korrupsiya darajasi-mamalakat taraqqiyoti va demokratiyasining ko'rsatkichi hisoblanadi //www.gazeta.uz/uz/2020/09/05/ akmal-burkhanov/
5. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiev N.E. Falsafa. Darslik. Samarqand-2021 y.
6. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik -T.: "Cho'lpon" NMIU, 2018.

Mavzuga doir savollar

1. "Korrupsiya" tushunchasining mazmuni nimalardan iborat?
2. Korrupsiyaning ildizlarini nimalar tashkil qiladi?
3. Korrupsiyaning sub'ektlariga kimlar kiradi?

4. Korrupsiyaning zararli oqibatlarini sanab bering?
5. Ma'muriy Korrupsiya deganda nimanani tushunasiz?
6. Korrupsiyaga qarshi kurash paradigmalari sanab bering?
7. BMT Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda?
8. O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi deb nimaga aytiladi?
9. O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurash qaysi tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan?
10. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

Mustaqil o'rganish uchun mavzular:


1. A.Fitratning "Oila asari"da Oila qo'rish tartiblari va Farzand tarbiyasi, "Rahbari najot" risolasining "Baxtsiz odamlarning ikki toifasiga" oid qarashlari bo'yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o'tkazish
2. Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning Siyosat falsafasi va G'azzoliyning Kimyoi saodat asarlari asosida); Yevropa mutafakkirlari Platon, Besiy, R.Dekart, D.Yumning falsafaga oid qarashlarini qiyosiy taxlili etish va fikrlarga izox berish, sharq va g'arb mutafakkirlari qarashlaridagi farq va o'zaro aloqalarni asoslash (T sxemasi metodi asosida)
3. Avloniyning Madaniyat to'lqinlari maqolasi va E.Toflerning uchinchi to'lqin asarini qiyosiy taxlil etish
4. Aristotel, Forobiy va Kantning ontologiyasida kategoriyalar taasnifini qiyosiy tahlil etish va farqlarni aniqlash, esse tayyorlash, krossvord tayyorlash
5. Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari mavzusida esse tayyorlash (Toynbi, Toffler, Ma'suda, Xantington asarlarining qiyosiy tahlili asosida)
6. Global jarayonlar dialektikasi mavzusida tahliliy ma'ruza tayyorlash va uning taqdimotini o'tkazish
7. Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi
8. Davlat va huquq tizimida din omili mavzusida xozirgi zamon g'arb va sharq mamlakatlaridagi din omili bo'yicha esse tayyorlash
9. Dialektika rivojlanish xaqidagi ta'limot


10. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya xudojo'ylik tushunchalarining ma'nosi va ularning o'zaro aloqasi
11. Diniy tashkilotlar faoliyati mavzusida esse tayyorlash.
12. Diniy fanatizmning asoslari va manbalari.
13. Diniy e'tiqod va ratsionallik
14. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar.
15. Dunyo xalqlari miqlari xaqida ma'ruza matni va krossvord tayyorlash
16. J. Rumi va M. Shelelarning inson tabiatiga oid qarashlarini tahlili etish
17. J. Rumiyning "Quyoshda xam dog' bor" deganda nimani nazarda tutadi (Ichindagi ichindadir asari asosida axloq tarbiyasiga oid esse tayyorlash)
18. J. Rumiyning "ovchi va lochin" rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini taxlil etish (Ichindagi ichindadir asari asosida)
19. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari.
20. Insoniyat tarixida tarbiya va ta'limning rivojlanish bosqichlari.
21. Islom nurli ma'rifat dini mavzusida (esse tayyorlash)
22. Islom dini, uning asosiy oqimlari va yo'nalishlari.
23. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik.
24. Islomda nikox va oilaviy munosabatlar talqini, erkak va ayolning maqomi.
25. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari
26. Korrupsiya tushunchasi va uning oqibatlar mavzusida viktorina o'tkazish, video roliklar tanlovi tashkil etish (talabalarning viktorinasini o'tkazish)
27. Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va shakllanish tarixi.
28. Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning turlari
29. Koevolyusiya va invayronmentalizm: muammo va yechim mavzusida esse tayyorlash (O'zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar xaqida ma'lumotlarni aniqlash) O'zbekiston tabiati mavzusida krossvord tayyorlash,
30. Qur'on sura va oyatlari ma'nosini hozirgi davr voqeligiga bog'lab esse tayyorlash (Klaster yoki T sxemasi usulidan foydalaniladi, sura yoziladi va yonida uning hozirgi davrda amaliyotdagi ifodasi.


31. Qo'shimcha vazifa: Al Forobiy "Fozil odamlar shaxri", Nizomulmulk "Siyosatnoma", Fitrat "Muxtasar islom tarixi", G'azzoliy "Kimyoi saodat", Rumiyy J. Masnaviy, 40 rivoyatga sharx, E.Fromm "Dusha cheloveka", S.Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi", E.To'ffler "Uchinchi to'iqin" asarlarining tahlili
32. Bexbudiyning "Padarkush yoxud tarbiyasiz bolaning taqdiri" dramasini saxnalashtirish va namoyish etish
33. M.Bexbudiynig "Yoshlarga murojaat" va "muxtaram yoshlarga murojaat" maqolalarini taxlil etish va esse tayyorlash
34. Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli.
35. Ona yurtim tabiati mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish
36. Parmenid va Melesning borliq xaqidagi qarashlaridagi farqlar va umumiylikni aniqlash (Melesning borliq xaqida nomli asari asosida esse tayyorlash)
37. Platon ontologiyasining teistik (metafizik) jihatini Timey dialogidagi g'oyalari asosida tahlil etish
38. Senekaning Lutsiliyga axloqiy xatlarini tahlil qilish va xar bir xatning axamiyatini xozirgi davr nuqtai nazaridan baholash, (talaba har bir xatning mazmunini o'zining faoliyati bilan bog'lab ochib beradi, shunda u o'z xayotidagi xatolarni anqilaydi)
39. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi: Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari
40. Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari mavzusida esse tayyorlash (Fizika, kimyo, geologiya, minerologiya, astronomiya, informatika soxasida O'zbekistondagi kashfiyot va ixtirolar bo'yicha ma'lumot bazasini tayyorlash)
41. Tasavvufning falsafiy jixatlari. (esse tayyorlash)
42. Temur tuzuklarining zamonaviy boshqaruv tizimidagi ahamiyati mavzusida esse tayyorlash
43. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari.
44. Tushunish va tushuntirishning o'zaro dialektikasi mavzusida esse tayyorlash (Gamader, Diltey, Xaydeger asarlari asosida)
45. O'zbekiston san'ati rivojlanish tarixi va xozirgi zamon mavzusida taqdimot tayyorlash
46. O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy - huquqiy mexanizmlari.


47. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish amaliyoti: yutuq va kamchiliklar
48. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar mavzusida talabalar konferensiyasini tashkil etish.
49. O'zbekistonning arxitektura yodgorliklarining qiyosiy tahlil bo'yicha videorolik tayyorlash, "Mening yurtim" loyihasi doirasida xar bir talaba o'zining viloyatidagi arxitektura yodgorliklarining tarixiga oid taqdimot tayyorlashi maqsadga muvofiq
50. Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid qarashlar tasnifi.
51. Falsafa tarixida sivilizatsiyaga turli yondashuvlar tasnifi (al Forobiy, Ibn Xaldun, N.Danilevskiy, O.Shpengler, A.Toynbi).
52. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli
53. Falsafada qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari.
54. Fanlarning tasnifiga oid G'arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlari (esse tayyorlash)
55. Forobiy va Ibn Sinoning ontologik qarashlarini sufizm ontologiyasi bilan qiyosiy taxlili etish
56. "Estetika" fanining obekti va falsafiy mohiyati.
57. "Etika" fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi
58. Hukmning tarkibi va xususiyatlari.
59. Sharq va G'arb falsafasining vujudga kelishi, rivojlanish tarixi.


Yassaviy Xoja Axmadning "Devoni xikmat" asari bo'yicha esse tayyorlash


























Mavzularga doir testlar

1. "Falsafa" so'zining ma'nosini aniqlang
 - A. "bilimni sevish"
 - B. "ilmni sevish"
 - *S. "donishmandlikni sevish"
 - D. "bahs-munozarani sevish"
2. "Falsafa" atamasi qachon paydo bo'lgan?
 - A. mil.avv.VIII-IV asrlarda
 - *B. mil.avv.VII-III asrlarda
 - S. mil.avv.VI-II asrlarda
 - D. mil.avv.V-I asrlarda
3. "Falsafa" atamasini birinchi bo'lib qaerda va kim ishlatgan?
 - A. Qadimgi Hindistonda, Vardxamana
 - B. Qadimgi Xitoyda, Lao-si
 - *S. Qadimgi Yunonda, Pifagor
 - D. Qadimgi Rimda, Lukresiy Kar
4. Abu Nasr Forobiy "Falsafa" so'zini qanday talqin qilgan?
 - *A. "hikmatni qadrlash"
 - B. "olam sirlarini bilish"
 - S. "umr mazmunini idrok qilish"
 - D. "hayotni qadrlash"
6. "Substansiya" so'zining ma'nosini aniqlang:
 - *A. "mohiyat"
 - B. "mazmun"
 - S. "asos"
 - D. "g'oya"
7. "Substansiya" tushunchasining talqiniga daxldor quyidagi javoblardan biri noto'g'ri. Uni toping:
 - A. Pifagor: "Hamma narsa sonlardan tashkil topgan"
 - B. Platon: "Substansiya - bu g'oyalardir"
 - S. Demokrit: "Olamning asosida atomlar yotadi"
 - *D. Aristotel: "Substansiya dunyoni bilishdan iborat"
8. "Plyuralizm" tushunchasining mazmuniga doir to'g'ri javobni toping:
 - A. olamning asosi yakkayu yagona sababga ega
 - B. olamning asosida ikkita asos - ham modda va ham ruh, g'oya yotadi
 - *S. olamning asosida ko'p narsa va g'oyalar yotadi

- D. olam faqat moddiy narsalardan iborat
9. "Dialektika" atamasining asl ma'nosini aniqlang:
- A. "bilish nazariyasi"
- *B. "bahs va suhbatlashish san'ati"
- S. "tabiatdan keyin"
- D. "ataylab chalg'itish"
10. Falsafaning gnoseologik vazifasi nimadan iborat?
- *A. dunyoni bilishdan
- B. inson va dunyoqarashni shakllantirishdan
- S. biron narsani kashf etishdan
- D. inson faoliyatida biron usul va uslubdan foydalanishdan
11. Falsafiy dunyoqarash tarkibidagi eng muhim qismlarni aniqlang:
- A. bilim, tasavvur, fikr
- *B. e'tiqod, hissiyot, aql
- S. g'oya, maqsad, ishonch
- D. sezgi, hissiyot, bilim
12. Falsafiy dunyoqarashning kommunikativ vazifasi qaysi javobda ko'rsatilgan?
- A. baholash
- B. boshqarish
- S. nazorat qilish
- *D. birlashtirish
13. Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi qaysi javobda ifodalangan?
- A. olam va odamni bilish
- B. olam va odam xossalarini kashf etish
- *S. inson dunyoqarashini tarbiyalash va shakllantirish
- D. borliqning foydali tomonlarini o'rganish
14. Materializm bu...
- *A. borliqdagi barcha narsalarning birlamchi asosi moddiy ibtidodir, deb e'tirof qiladigan falsafiy ta'limot
- B. moddiy olamdagi barcha narsalarni ikkilamchi ekanligini e'tirof qiladigan ta'limot
- S. g'oya barcha mavjud narsalarning majmuasidir, deb hisoblaydigan konsepsiya
- D. olamdagi barcha nomoddiy narsalarni keltirib chikaradigan birlamchi substansiya haqidagi qarashdir

15. Idealizm bu...

- *A. barcha narsalarning birlamchi asosini tashkil qiladigan mohiyat ruhdur, deb e'tirof qiladigan ta'limot
- B. moddiy va ma'naviy narsalarni keltirib chiqaradigan ruhiy substansiyalar majmuasi haqidagi qarash
- S. ideal olam haqidagi qarashlar tizimi
- D. «men uchun mendan yuqori bo'lgan narsa yo'qdir», deb hisoblaydigan ta'limot

16. Ratsionalizm bu...

- *A. bilimimizning shaql va mazmunini, faoliyatimiz tartibi va yo'nalishini aql belgilaydi deb hisoblaydigan ta'limot
- B. barcha narsa va hodisalar, axborot va bilimlar manbai ongdir deb hisoblaydigan ta'limot
- S. butun moddiy va ma'naviy faoliyatimizni, uning yo'nalishi va istikbolini aql boshkaradi deb hisoblaydigan ta'limot
- D. barcha javoblar to'g'ridir

17. Panteizm bu...

- *A. xudo shaxssiz ibtido bo'lib, tabiat bilan aynanligini e'tirof etadi
- B. olam yagona sifatdan tashkil topgan deb tushuntiruvchi ta'limotdir
- S. borliq haqidagi ta'limotdir
- D. tabiat haqidagi ta'limotdir

18. Hayot, o'lim va mavjudlik dialektikasini kimlar ishlab chiqqan?

- *A. Ekzistensialistlar
- B. Germenevtiklar
- S. Yangikantchilar
- D. Dialektik Ilohiyotchilar

19. Dialektika qanday qonuniyatlarni o'rganadi?

- *A. umumiy aloqadorlik va rivojlanish qonuniyatlarini
- B. bir holatdan ikkinchi holatga o'tish qonuniyatlarini
- S. bir sifatli ob'ektdan ko'p sifatli ob'ektga o'tish qonuniyatlarini
- D. bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish qonuniyatlarini

20. Dunyoqarashning ilk shakli bu...

- A. Materializm
- B. Falsafiy
- S. Diniy
- *D. Mifologik

21. Irratsional bilishning asosi

*A. intuitsiya

B. aql

S. idrok

D. sezgi

22. Diniy dunyoqarash nimaga asoslanadi?

*A. Ilohiy qudratga, e'tiqod ishonchga

B. afsonaviy kuchlarga

S. bilish nazariyasiga

D. materializmga

23. Dogmatizm bu...

A. hamma narsani o'zgarishda rivojlanishda deb o'rganuvchi ta'limot

B. dogma haqidagi ta'limot

*S. hamma narsani o'zgarishsiz qotib qolgan holda o'rganuvchi ta'limot

D. dogmaga asoslangan faoliyat turi

24. Quyidagi faylasuflardan biri falsafani "predmetlarga fikriy yondoshish" deb talqin qilgan. U kim?

A. Pifagor

B. Aristotel

S. Tomas Gobbs

*D. Gegel

25. "Veda"ning falsafiy qismini aniqlang?

*A. "Upanishadalar"

B. "Rigveda"

S. "Samaveda"

D. "Yajurveda"

26. Konfutsiya fikricha, jamiyat hayotidagi tartib ilohiy mazmunga ega. Uning mohiyati qaysi so'z bilan ifodalangan?

A. "jen"

*B. "li"

S. "si"

D. "dao"

27. Daosizm ta'limotida "dao" nimani anglatadi?

A. narsalarning doimiyligi va o'zgarmasligini

B. olamning beshta unsurdan tashkil topganini

*S. tabiatning yashash qonuni va undagi qarama-qarshi kuchlarning kurashini

- D. barcha javoblar to'g'ri
28. Milet falsafiy maktabining uchta buyuk vakilini aniqlang:
- A. Fales, Geraklit, Demokrit
- B. Anaksimandr, Suqrot, Aristotel
- S. Anaksimen, Pifagor, Platon
- *D. Fales, Anaksimandr, Anaksimen
29. Tabiatdagi jism va hodisalar dastlabki ibtido-suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi, bu moddiy birlik doimo o'zgarishda, - bu haqida qaysi faylasufga mansubdir?
- *A. Fales
- B. Anaksimandr
- S. Anaksimen
- D. Geraklit
30. "Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir", - bu so'zlarni kim aytgan?
- A. Pifagor
- *B. Geraklit
- S. Demokrit
- D. Epikur
31. "G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi" ta'limotining asoschisini aniqlang:
- A. Suqrot
- *B. Platon
- S. Aristotel
- D. Lukresiy Kar
32. Aristotel fanlarni nazariy, amaliy va ijodiy fanlarga bo'lgan. Nazariy fanlar guruhiga u qaysi fanlarni kiritgan?
- *A. filosofiya, matematika, fizika
- B. axloq va siyosat
- S. san'at va hunarmandchilik
- D. mantiq, axloqshunoslik va nafosatshunoslik
33. Quyidagi Qadimgi Rim faylasuflari o'rtasida atomistik ta'limot tarafdorini aniqlang:
- *A. Lukresiy Kar
- B. Seneka
- S. Sitseron
- D. Platon
34. Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limoti qachon vujudga kelgan?
- A. mil.avv.VI asrda

- B. mil.avv.V asrda
*S. mil.avv.VI asr oxiri va V asr boshida
D. mil.avv.V asr oxirida
- 35. Markaziy Osiyoda tarqalgan tasavvuf tariqatlarini aniqlang:**
A. kubroviya, yassaviya, ahmadiya
B. kubroviya, naqshbandiya, ahmadiya
*S. kubroviya, yassaviya, naqshbandiya
D. yassaviya, naqshbandiya, ahmadiya
- 36. "Al-Hidoya" asari kimga mansubdir?**
A. Imom al-Buxoriyga
B. Imom at-Termiziyga
S. Imom al-Motrudiyga
*D. Burhoniddin al-Marg'inoniyga
- 37. Sharq Uyg'onish davrida mashhur bo'lgan "Bayt-ul-hikma" akademiyasi qaerda joylashgan edi?**
A. Damashqda
*B. Bag'dodda
S. Samarqandda
D. Buxoroda
- 38. "Vujudi vojib" va "vujudi mumkin" falsafiy kategoriyalari qaysi allomaga taaluqli?**
*A. Forobiy
B. Beruniy
S. Ibn Sino
D. Zakariyoi Roziy
- 39. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy asarini aniqlang:**
A. "Al-Xidoya"
B. "Kitob at-tavhid"
S. "Kitob al-Burhon"
*D. "Donishnoma"
- 40. Buyuk faylasuf Sa'diddin Taftazoniy qaysi mintaqada va qaysi zamonda yashab, ijod qilgan?**
A. Xorazmda, XIII asrda
*B. Movarounnahrda XIV asrda
S. Xurosonda, XV asrda
D. Movarounnahrda, XVI asrda
- 41. Alisher Navoiyning falsafiy-ma'naviy ideali (orzusi)ni aniqlang:**
A. fozil inson

- B. fozil jamiyat
 S. insof va adolat
 *D. hamma teng va zulm-istibdoddan holi davlat tuzumi
42. **Jadidchilik harakati mohiyatini ifodalovchi markaziy g'oyani aniqlang:**
 A. milliy tarbiya g'oyasi
 B. zamonaviy ta'lim g'oyasi
 *S. milliy taraqqiyot g'oyasi
 D. milliy teatr g'oyasi
43. **O'rta asrlar G'arb falsafasida reallik (universal)ga bo'lgan munosabatda ikki qarama-qarshi oqimlarni aniqlang:**
 A. gnostika va agnostika
 B. monizm va dualizm
 S. apologetika va patristika
 *D. nominalizm va realizm
44. **G'arb Uyg'onish davri falsafasida "xudo hamma narsalarda mavjud, hamma narsalar xudoda mavjud" va ayni vaqtda "haqiqatni bilish tajriba asosida amalga oshadi" kabi qarama-qarshi qarashlar qaysi faylasufga xos edi?**
 *A. Nikolay Kuzanskiy
 B. Yakob Byome
 S. Nikolay Kopernik
 D. Jordano Bruno
45. **Yangi davr ingliz falsafasida qaysi faylasuf "davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiqdir" degan?**
 A. Frensis Bekon
 *B. Tomas Gobbs
 S. Jon Lokk
 D. Benedikt Spinoza
46. **Rene Dekartning dualistik ta'limotini aniqlang:**
 *A. borliqning asosida modda va ruh yotadi va u xudoga bo'ysunadi
 B. borliqning asosida modda va ruh yotadi va u xudoga bo'ysunmaydi
 S. borliqning asosida modda va ruh yotadi va u azaliy va abadiy kuch orqali idora qilinadi
 D. barcha javoblar to'g'ri
47. **"Zardusht tavallosi" nomli kitobning muallifini aniqlang:**
 A. Artur Shopengauer
 *B. Fridrix Nisshe

- S. Benedikt Spinoza
D. Zigmund Freyd
48. Foydali faoliyatga undovchi, foydaga qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqidagi ta'limotni aniqlang:
A. strukturalizm
B. germenevtika
*S. pragmatizm
D. ekzistensializm
49. "O'zingni bilsang, olamni bilasan", o'z-o'zini anglash mavzusiga tegishli bu hikmatni qaysi faylasuf aytgan?
A. Pifagor
*B. Suqrot
S. Demokrit
D. Epikur
50. Yevropa madaniyatiga "filosofiya" atamasi qaysi faylasuf asarlari orqali kirgan?
A. Pifagor asarlari orqali
B. Arastu asarlari orqali
*S. Aflotun asarlari orqali
D. Forobiy asarlari orqali
51. "Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi". Bu falsafiy hikmat kimga mansub?
*A. Geraklit
B. Fales
S. Aflotun
D. Arastu
52. Demokrit, Epikur va Lukresiy Kar o'z falsafiy ta'limotlarida qaysi yagona fikrni ilgari surganlar?
A. olam moddalardan iborat
B. olam g'oyalardan iborat
*S. olam atomlardan iborat va ular-bo'linmas va o'zgarmas
D. olamdagi hamma narsa harakatda
53. Harakat va o'zgarishlarni inkor qiladigan aporiyalarni muallifi kim?
*A. Zenon
B. Aristotel
S. Suqrot
D. Platon

54. O'zgarish, harakat va rivojlanish manbai ziddiyat ekanligini kim aytgan?
- *A. Gegel
 - B. Leybnis
 - S. Kuzanskiy
 - D. Kant
55. "Dialektike texne" (bahslashuv san'ati) tushunchasini kim ishlab chiqqan?
- *A. Suqrot
 - B. Zenon
 - S. Parmenid
 - D. Platon
56. "Transsendental dialektika" tushunchasini kim ishlab chiqqan?
- *A. Kant
 - S. Volf
 - S. Leybnis
 - D. Gegel
57. Idealistik dialektika ta'limoti va usulini kim ishlab chiqqan?
- *A. Gegel
 - B. Volf
 - S. Kant
 - D. Leybnis
58. Materialistik dialektikani kim ishlab chiqqan?
- *A. Marks
 - B. Kant
 - S. Shelling
 - D. Gegel
59. Anaksimandr ta'limotida borliqning asosi nima?
- *A. apeyron
 - B. suv
 - S. olov
 - D. havo
60. Antik dunyo falsafasida "Hamma narsa harakatlanadi va o'zgaradi" degan fikrni ilgari surgan mutafakkir?
- *A. Geraklit
 - B. Anaksimen
 - S. Pifagor
 - D. Parmenid

61. Qadimgi Xitoy falsafiy oqimi?

- *A. Daosizm
- B. Nyaya
- S. Chorvaka-lokayata
- D. Sankxya

62. "Vedalar" qaerda paydo bo'lgan?

- *A. Hindiston
- B. Misr
- S. Bobil
- D. Xitoy

63. "Kurash", "Urush" barcha narsaning "otasi", "podshosi" degan faylasuf?

- A. Zenon
- B. Parmenid
- S. Fales
- *D. Geraklit

64. Qadimgi falsafada metafizikaning asoschisi.

- A. Geraklit
- B. Zenon
- *S. Parmened
- D. Fales

65. "Karma" qonuni haqidagi ta'limot qaysi mamlakat falsafasida uchraydi?

- A. Qadimgi Xitoy
- *B. Qadimgi Hindiston
- S. Qadimgi Yunoniston
- D. Qadimgi Misr

66. Qadimgi Yunonistonda qaysi mutafakkir olamning asosiga olovni qo'ygan?

- A. Anaksimend
- B. Anaksimandr
- S. Fales
- *D. Geraklit

67. Zenon o'z dalillarida qaysi tezisni himoya qilgan?

- *A. Harakat yuq
- B. Harakatni fikrlash mumkin emas
- S. Harakat to'g'ri chiziqli
- D. Aylanma harakat

68. "Avesto"dagi asosiy falsafiy g'oya.
- A. Materializm va idealizm kurashi g'oyasi
 - *B. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash g'oyasi
 - S. Gumanizm g'oyasi
 - D. Yangi jamiyat qurish g'oyasi
69. Buyuk bahschi faylasuf kim?
- A. Fales
 - B. Geraklit
 - S. Demokrit
 - *D. Suqrot
70. Mayevtika nima?
- A. Ilohiy fan
 - *B. Doyalik
 - S. Falsafiy yo'nalish
 - D. Matematika qismi
71. Og'zaki suhbat, savol-javob va bahslashishni yozma asardan ustun deb bilgan faylasufni aniqlang.
- A. Platon
 - *B. Suqrot
 - S. Demokrit
 - D. Fales
72. Yunon falsafasida atom tug'risidagi ta'limotning asoschisi kim?
- A. Aristotel
 - B. Platon
 - *S. Levkipp
 - D. Empedokl
73. "Metafizika" asarining muallifi kim?
- *A. Aristotel
 - B. Platon
 - S. Suqrot
 - D. Demokrit
74. Falsafaga gumanistik yo'nalish mutafakkiri...
- A. Fales
 - B. Geraklit
 - S. Parmined
 - *D. Suqrot
75. "Bilmasligimni bildim" hikmati qaysi faylasufga ta'lluqli?
- *A. Suqrot

- B. Platon
S. Fales
D. Aristotel
76. Qadimgi Hindistonda kasta tizimini nazariy asoslagan diniy g'oyaviy oqim qaysi?
*A. Braxmanizm
B. Buddizm
S. Jaynizm
D. Hinduizm
77. Daosizm maktabining asoschisi kim?
A. Konfutsiya
*B. Lao - szi
S. Mo - szi
D. Platon
78. Qadimgi zamonda "Geotsentrik" farazni aytgan olimning nomini aniqlang
*A. Ptolemey
B. Porfiri
S. Suqrot
D. Arastu
79. Qadimgi Hindistonning ilk madaniy yodgorliklari qaysi?
A. Arfist ko'shiqlari
B. Iliada
*S. Vedalar
D. Nasihatnoma
80. Atom tushunchasining ma'nosini ayting
*A. bo'linmas
B. ajratilgan
S. bo'linuvchi
D. bir bo'lak, yaxlit
81. Falsafani fan sifatida aniq sistema tarzida ifoda etgan buyuk yunon faylasufi
*A. Aristotel
B. Platon
S. Suqrot
D. Pifagor
82. Sharq falsafasida "insoni komil" nazariyasiga kim asos solgan?
A. Forobiy

B. Ibn Sino

*S. Ibn Al - Arabiy

D. G'azzoliy

83. "Ikkinchi Arastu", "Ikkinchi muallim" deb e'tirof etilgan mutafakkir kim?

*A. Forobiy

S. Ibn Sino

B. Beruniy

D. Al-Farg'oniy

84. Moddiy dunyo bo'shliq va atomlardan tashkil topgan degan qarash muallifi kim?

*A. Demokrit

B. Geraklit

S. Fales

D. Arastu

85. Sofistika bu...

A. ongli ravishda mantiq qonun-qoidalarini buzmasdan fikrlaydi

*B. ongli ravishda mantiq qonun-qoidalarini buzib fikrlaydi

S. bilishni ziddiyatli ekanligini inkor qiladi

D. falsafada mantiqqa tayangan yo'nalish

86. Olamning hozirgi zamon va kelajak shakllarini aniqlang:

A. moddiy olam va ma'naviy olam

B. tabiiy olam va sun'iy olam

S. konkret olam va abstrakt olam

*D. aktual olam va potensial olam

87. Olamning quyidagi namoyon bo'lish shakllari ichida mavjudligi ehtimol olam shaklini toping:

A. fizik olam

B. aktual olam

S. potensial olam

*D. virtual olam

88. Borliq to'g'risidagi falsafiy fanni aniqlang:

A. gnoseologiya

*B. ontologiya

S. aksiologiya

D. praksiologiya

89. Borliqning eng asosiy atributini aniqlang:

*A. harakat

B. harakatsizlik

S. o'zgarish

D. o'zgarmaslik

90. Materiya tushunchasi...

*A. ob'ektiv borliqni ifodalaydigan falsafiy kategoriya

B. olamdagi narsalarning mohiyatini belgilovchi hodisa

S. moddiy olamdagi barcha hodisalarni ifodalaydigan tushuncha

D. sub'ektiv borliqni ifodalaydigan falsafiy kategoriya

91. Harakatning asosiy shakllari...

A. issiklik, yorug'lik, magnetizm, o'zgarish va kimyoviy birikish

*B. mexanik, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy

S. mexanik, o'zgarish, issiklik, parchalanish, birikish

D. o'rin almashish, issiklik, yorug'lik, birikish, organik hayot

92. Fazoni me'yoriy o'lchovlari...

*A. fazo uch o'lchovli xislatga ega

B. fazo to'rt o'lchovli substansiyadir

S. fazo ko'p o'lchovli moddiy asosdir

D. fazo aprior, o'lchovsiz tushuncha

93. Vaqtning me'yoriy o'lchovlari ...

*A. vaqt bir o'lchovli xislatga ega

B. vaqt ko'p o'lchovli xislatga ega

S. vaqt uch o'lchovli davomiylikdir

D. vaqt me'yoriy o'lchovga ega emas

94. Borliqning shakllarini ko'rsating.

*A. moddiy, ijtimoiy, ma'naviy

B. moddiy va ijtimoiy borliq

S. moddiy va inson borlig'i

D. materiya va modda

95. Borliqning asosiy atributlari (ajralmas xususiyatlari) qaysilar?

*A. harakat, fazo va vaqt

B. harakat va uning shakllari

S. fazo va vaqt

D. harakat va vaqt

96. Harakatning eng oddiy shakli qanday harakat?

*A. mexanik

B. fizik

S. ximik

D. biologik

97. **Harakatning eng yuqori shakli qanday harakat?**

- *A. ijtimoiy harakat
- B. biologik harakat
- S. mexanik harakat
- D. fizik harakat

98. **Ijtimoiy harakat qaerda sodir bo'ladi?**

- *A. jamiyatda bo'ladi
- B. jonli tabiatda ro'y beradi
- S. jonsiz tabiatda ro'y beradi
- D. butun borliqda ro'y beradi

99. **Harakat bu...**

- *A. butun borliqdagi barcha o'zgarishlar
- B. faqat jamiyatda ro'y beradi
- S. faqat jonsiz tabiatda bo'ladi
- D. Jonsiz tabiatdagi o'zgarishlar

100.... **materiyaning tuzilish tartibi, ko'lamini, olamdagi narsalarning o'zaro joylashish vaziyatini ifodalaydi. (nuqtalar o'rniga to'g'ri keladigan tushunchani qo'ying)**

- A. Vaqt
- *B. Fazo
- S. Harakat
- D. Substansiya

101.... **hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. (nuqtalar o'rniga to'g'ri keladigan tushunchani qo'ying)**

- *A. vaqt
- B. Fazo
- S. borliq
- D. materiya

102. **Borliqning sifatiy rivojlanish darajalarini ko'rsating.**

- *A. anorganik, organik, ijtimoiy dunyo
- B. jonli va jonsiz tabiat
- S. materiya va modda
- D. organik va anorganik dunyo

103. **Dastlabki vaqtlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun dunyodagi barcha narsa hamda hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi asosni falsafada qanday tushuncha bilan ifodalaydi?**

- A. materiya

- *B. substansiya
- S. ratsionallik
- D. plyuralizm

104.... umumiy tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o'z ichiga oladi. (nuqtalar o'rniga to'g'ri keladigan tushunchani qo'ying)

- A. Materiya
- B. Fazo
- S. Tabiat
- *D. Borliq

105. "Ikkinchi tabiat" borlig'ini qanday tavsif qilish mumkin?

- A. tabiiy tabiatda mavjud bo'lgan narsalar borlig'i
- B. tabiiy tabiatda mavjud bo'lmagan narsalar borlig'i
- *S. odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i
- D. biosferada mavjud bo'lgan narsalar borlig'i

106. Tabiat borlig'ining darajalari qaysi tushunchalar qatorida ifodalangan?

- A. tabiat, jamiyat, ong
- *B. makrodunyo, mikro-dunyo, megadunyo
- S. organik dunyo, anorganik dunyo, ijtimoiy dunyo
- D. biosfera, noosfera, ekosfera

107. Olamdagi narsa, voqea va jarayonlarga xos bo'lgan aniq, yagona, takrorlanmaydigan belgilar hamda xususiyatlarni ifodalaydigan falsafiy kategoriyaning nomini aniqlang:

- *A. alohidalik
- B. umumiylik
- S. xususiylik
- D. rivojlanish

108. Olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarib, rivojlanib boradi, bu jarayonlarda narsalar doimo paydo bo'ladi, o'zgarib turadi. Bu holat falsafaning qaysi kategoriyalarida o'rganiladi?

- A. zaruriyat va tasodif
- B. imkoniyat va voqelik
- *S. miqdor va sifat
- D. mohiyat va hodisa

109. Voqelikdagi sababiy bog'lanishlar bilan aloqador ikki falsafiy oqimni aniqlang:
- A. dialektika va metafizika
 - B. sofistika va ekletika
 - S. sinergetika va struktualizm
 - *D. determinizm va indeterminizm
110. Falsafaning bilish masalalari bilan shug'ullanuvchi sohasini aniqlang:
- *A. gnoseologiya
 - B. aksiologiya
 - S. ontologiya
 - D. praksiologiya
111. Bilish ob'ektini aniqlang:
- *A. insonning bilim hosil qilish uchun ilmiy faoliyatiga qaratilgan barcha narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar
 - B. faqat tabiat hodisalari
 - S. faqat jamiyat (ijtimoiy) munosabatlar
 - D. faqat insonning o'zi
112. Bilish sub'ektini aniqlang:
- A. bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar
 - B. bilish bilan shug'ullanuvchi butun insoniyat
 - *S. bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat
 - D. bilish bilan shug'ullanuvchi optimistlar
113. Quyidagi haqiqat tasnifida bahs talab qilmaydigan haqiqatni ko'rsating:
- A. mutlaq haqiqat
 - B. nisbiy haqiqat
 - *S. ilmiy haqiqat
 - D. obyektiv haqiqat
114. Falsafiy fanlar tizimidagi insonni o'rganadigan fanni belgilang:
- A. arxeologiya
 - *B. antropologiya
 - S. ontologiya
 - D. aksiologiya
115. Quyidagi qaysi javobda jamiyat tushunchasining mohiyati to'g'ri tavsiflanga?
- A. tabiatning bir qismidir
 - B. ijtimoiy borliq hisoblanadi

S. odamlar uyushmasining maxsus shaklidir

*D. odamlar uyushmasining maxsus shakli bo'lib, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar yig'indisidir

116. Hozirgi zamon nazariyalarda berilgan jamiyat evolyusion taraqqiyoti bosqichlarni to'g'ri belgilang:

*A. agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat

B. industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, agrar jamiyat

S. postindustrial jamiyat, industrial jamiyat, agrar jamiyat

D. agrar jamiyat, postindustrial jamiyat, industrial jamiyat

117. Ko'zga ko'rinmas lekin ulkan va mutloq aybsiz axloqiy mezoniy tushuncha nima deb ataladi?

*A. vijdon

V. burch

S. or-nomus

D. yaxshilik

118. Mohiyatan davlat jamiyat shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat qanday ataladi?

A. or-nomus

*V. burch

S. vijdon

D. yaxshilik

119. Axloq tuzilmasini ko'rsating.

A. axloqiy anglash

V. axloqiy his etish

S. axloqiy munosabat

*D. barcha javoblar to'g'ri

120. Etika atamasini birinchi bo'lib kim muomalaga kiritgan?

A. Fales

V. Demokrit

S. Suqrot

*D. Aristotel

121. "Axloq" so'zi arabchadan olingan bo'lib u...

A. "Madaniyat" so'zining xususiy shaklidir

*V. "Xulq" so'zining ko'plik shaklidir

S. "Yaxshi" so'zining ko'plik shaklidir

D. "Odob" so'zining juz'iy shaklidir

122. Jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti – harakatlar yig'indisi – bu...
- *A. axloq
 - V. huquq
 - S. san'at
 - D. burch
123. Insonparvarlik tuyg'usini qanday tushunasiz?
- A. kishining o'zi uchun, o'z urug'-aymog'i uchun qayg'urishi
 - V. nogiron va ojiz kishilarga qilgan g'amxo'rligi
 - *S. insonlarni sevish, yordamga muxtoj kishiga mehr-shavqat qilib yordam bera olishi, rostgo'y, adolatparvar, axloqan barkamol insonparvar degan nomga sazovor bo'la olishi
 - D. insonparvar bo'lish qiyin, chunki bunday tushuncha chiroyli ibora xolos, odamlar bir-birlarini ko'ra olmaydi, bir-biriga dushman
124. Axloq deganda nimani tushuniladi?
- A. axloq xudoning insonga bergan in'omi
 - V. axloq kishining turli xil kayfiyatlari
 - *S. axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurish-turish qoidalari va xulq-atvori me'yorlari
 - D. axloq yaxshilik va yomonlikning o'lchov mezoni
125. Axloqning ijtimoiy hayotdagi roli nimadan iborat?
- A. odamga omad va baxt-saodat keltiradi
 - V. kishini xato qilmaslikka undaydi
 - *S. insonni ma'naviy kamolotga yetkazadi, jamiyatni ma'lum muvozanatda saqlab turishga imkon beradi
 - D. kishining o'z nafsini tiya bilishini va insofli bo'lishini ta'minlaydi
126. Axloqning ma'naviy manbalari nimadan iborat?
- A. axloq xudoning irodasiga bog'liq
 - V. axloq hayotiy tajribalar davomida takomillashadi
 - *S. axloq ilm-ma'rifat orqali shakllanadi, kishining hayotiy mazmuni va hayotiy maqsadini qanday tushunishiga bog'liq
 - D. axloq kishining ijtimoiy faolligi, intilishlari va epchilligining mahsulidir
127. Axloqiy me'yorlar va axloqiy munosabatlar nimalardan iborat?
- *A. kishining mehnatga, o'z vatani va xalqiga, o'z kasbi-kori va oilasiga munosabatlari
 - V. qaysi yo'l bilan bo'lmasin, hayotda yutib chiqish
 - S. o'z do'sti va sevgilisiga sadoqatligi

D. tavakkalga tan berishligi, omadning kulib boqishi

128. Oddiy axloq me'yorlarini aniqlang.

A. o'z burchiga sadoqatligi

V. hayot mazmunini to'g'ri tushunishni bilish

*S. halollik, haqiqatgo'ylik, saxiylik, mehmondo'stlik,
xushmuomalalik, kamtarlik

D. o'z hayotida adashmaslik, hayot maqsadini to'g'ri tanlash

129. Axloq qanday kuchga tayanadi?

A. muayyan siyosiy tuzum tomonidan himoya qilinadi

*V. jamoatchilik fikriga

S. zo'rlik kuchiga tayanadi

D. tarbiyalash, o'qitish va o'rgatishga

130. Axloqiy me'yorlarni buzgan shaxslarga qarshi qanday chora va tadbirlar ko'riladi?

A. jismoniy qiynash zarur, tayoq tarbiyasini qo'llash ma'qul

V. jismoniy javobgarlikka tortmoq lozim

*S. jamoatchilik hukmi asosiy vosita bo'lmog'i lozim

D. ota-ona tegishli tanbeh bermog'i lozim

131. Axloqiy tarbiya qaerdan boshlanadi?

*A. eng avvalo oiladan, so'ngra bog'cha va maktabda davom qilmog'i lozim.

V. hayotning o'zi katta tarbiya maktabidir, uni tarbiyalab o'tirish kerak emas

S. avvalo bog'cha va maktabda

D. ishlab chiqarish jamoasi muhim tarbiya rolini o'ynashi mumkin

132. "Estetika" terminining ilmiy muomalaga kim kiritgan?

A. Gegel

*V. Baumgarten

S. Aflotun

D. Kant

133. Estetik faoliyat asosini nima tashkil etadi?

A. san'at

*V. insonning muayyan talab va ehtiyojlari

S. estetik ehtiyojlar

D. badiiy faoliyat

134. Estetikaning asosiy tushunchasini ko'rsating?

*A. go'zallik

V. fojiaviylik

S. kulgililik

D. ulug'vorlik

135. San'at asarlarining umrboqiyliigi nimaga bog'liq?

A. badiiy shakliga

*V. g'oyasiga

S. uslubiga

D. obrazlariga

136. "Teatr" so'zi qaysi tildan olingan?

A. lotincha

*V. yunoncha

S. inglizcha

D. fransuzcha

137. Teatr san'ati qanday san'at?

A. ichki harakat

V. drammatik harakat

S. tomosha san'ati

*D. saxna harakati san'ati

138. Estetik tarbiya nima?

A. go'zallikni tatbiq etish

*V. ijodiy faol bo'lgan inson shaxsligini shakllantirish

S. insonparvarlik

D. ta'lim tarbiya vositasi

139. G'arb Uyg'onish davri san'atkori bo'lmagan shaxsni ko'rsating?

*A. Rafael

V. Leonardo da Vinchi

S. Mikelandjelo

D. Kamoliddin Behzod

140. San'atda go'zallikning ifodasini ko'rsating?

A. ijtimoiy hayot

V. inson mehnati

S. san'at tabiatini anglash

*D. tabiatdagi go'zallik

141. "Estetika" fanining o'rganish doirasi nima?

*A. borliqni estetik o'zlashtirish doirasi va qonuniyatlari

V. moddiy va ma'naviy boyliklar doirasi va qonuniyatlari

S. voqelik olami

D. go'zallik olami

142. Dastlabki estetik g'oyalar paydo bo'lgan davlatlar qaysi?

*A. Misr, Mesopatamiya, Hindiston

V. Eron, Misr, Yunoniston

S. Misr, Mesopatamiya, Yunoniston, Eron

D. Eron, Misr, Mesopatamiya, Hindiston

144. Forobiyning estetikaga doir asarini ko'rsating.

*A. "Musiqqa haqida katta kitob"

V. "Fozil odamlar shahri"

S. "Musiqqa haqida so'z"

D. "Hattotlik haqida kitob"

145. San'atda badiiy haqiqat qanday namoyon bo'ladi?

A. san'at asarlarida

*V. badiiy qiyofalar tizimi orqali

S. obrazlarda

D. amaliyotda

GLOSSARIY

Agnostitsizm - inson ob'ektiv borliqni to'liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Adolat-(arabcha "adolat"-odillik)-kategoriyasida huquqiy talab, majburiyatlarning axloqiy tamoyil, normalarga muvofiq ravishda amal qilishligi darajasi ifodalanadi. Qadimgi yunon faylasufi adolatning ana shu xususiyatini hisobga olgan holda uni "qonunga muvofiq xulq" deb ta'riflagan edi.

Aksiomatika - nazariya tuzishning shunday bir usuliki, bunda ayrim haqqoniy qarashlar asos, qoidalar (aksiomalar) sifatida tanlab olinadi.

Albert Eynshteyn (1879-1955)- buyuk olim va mutafakkir, maxsus va umumiy nisbiylik nazariyasi, yorug'lik kvant nazariyasining muallifi. Hozirgi zamon fanida ilg'or g'oyalarni ilgari surgan, "fan etnosi" shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Ambivalentlik - ikki yoqlama sezgi; ayni bir ob'ekt bir vaqtning o'zida qarama-qarshi sezgi uyg'otishi: erkinlik va javobgarlik, yaxshilik va yomonlik va sh.k.

Antinomiya - (qonundagi ziddiyat) mantiqiy isbotlanadigan ikki qonun yoki xulosa o'rtasidagi ziddiyat.

Antitsientizm-fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen - inson faoliyati bilan bog'liq.

Antroposentrizm - dunyoni bilishda insonni ustun qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior - tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko'rilgunga qadar, tajribadan qat'iy nazar paydo bo'lgan obraz, g'oya, tushuncha.

Aristotel (mil. avv. 384-322) - qadimgi yunon faylasufi va qomusiy olimi. O'z asarlarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan bilimning barcha sohalarini qamrab olgan. Uning falsafa, mantiq, fizika, biologiya, san'at nazariyasi, ritorika, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti haqidagi fanlarga oid g'oyalari jahon falsafasi va fanining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Arximed (taxm. mil.av. 287-212) - qadimgi yunon olimi, matematigi. Yuza va hajmlarni aniqlash, egri chiziqlarning uzunligini

hisoblab topish usullarini birinchi marta qo'llagan; matematik fizika pioneri; mexanika asoschilaridan biri; kashfiyotchi.

Ateizm - xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut - xossa.

Axborot jamiyati - jamiyat taraqqiyoti negizi sifatida asosan axborotdan foydalanishga asoslangan kelajak jamiyati.

Axborot inqilobi - fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo'lib, bunda axborot o'ta muhim resursga aylanadi.

Axloq (arabcha "xulq" so'zining ko'plik shakli) - axloqshunoslik fanining tadqiqot doirasi (predmeti) bo'lib, u jamiyat va shaxs (individ) ma'naviy hayoti tizimining markaziy (substansiyaviy) qismi - unsuri hisoblanadi. Bu yeng avvalo shu bilan izohlanadiki, ma'naviyatning barcha unsurlarini axloq o'zida birlashtiradi va ular uchun mezoniy o'lchov bo'lib xizmat qiladi. Zotan, ezgulikka xizmat qilmaydigan haqiqat (bilim, e'tiqod) mavhum go'zallik yo'q.

Axloqshunoslik ("axloq" arabcha xulq so'zining ko'plik shakli) - amaliy moqomatga ega falsafiy fan bo'lib, u axloqning (axloqiy tafakkur) paydo bo'lishi, mohiyati va uning jamiyat va shaxs hayotida amal qilishining tamoyillari.

Axloqiy hissiyot - axloq tuzilmasining unsuri bo'lib, u kishining axloqiy talablar doirasidagi o'z-o'zini his qilishidir. Shunga ko'ra axloqiy hissiyot axloqiy ongning ixtiyor erkinligi tarzidagi shakli hisoblanadi. Axloqiy hissiyot shafqat, achinish, hamdardlik, uyalish, tavba-tazarru tarzida namoyon bo'ladi.

Axloqiy munosabat (faoliyat) - axloq tuzilmasining amal qilishi, ya'ni axloqiy anglash va axloqiy hissiyotning kishi xatti-harakatlari tarzida ro'yobga chiqish jarayonidir. Kushi axloqiy talablar, tamoyillarni yaxshi anglaydi. Lekin ular uning xatti-harakatining ichki sababi (motiv)ga aylanmasligi mumkin. Faqat axloqiy munosabatlar doirasidagina axloqiy talablar shaxs xatti-harakatlari tarzida reallashadi. Axloqiy munosabat kishilar o'rtasidagi, o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Axloqiy tamoyillar - axloqiy ong (anglash) shakli bo'lib, ularda axloqiy talab, normalar umumlashgan zaruriy qoidalar sifatida ifodalanadi. Shunga ko'ra axloqiy tamoyillar umuminsoniy xarakterga egadir, ya'ni ular irqi, millati, mazhabi turlicha bo'lgan kishilar uchun birdek umumiy, zaruriy talablardir.

Bashorat (ilmiy) - ayni paytda ma'lum bo'lmagan, lekin aniqlash mumkin bo'lgan muayyan narsaning kelajakdagi holati haqida asoslantirilgan taxmin.

Badiiy ijod - umumiy ijodiyotning turi bo'lib, estetik faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Badiiy ijod jarayonining natijasi o'laroq san'at asarlari yuzaga keladi, yaratiladi.

Barokko (ital. barocco - g'alati) - 1. XVII asrdagi G'arbiy Ovro'pa madaniyati, san'atidagi yo'nalish bo'lib, u Uyg'onish davri inqirozidan keyin yuzaga keladi.

2. XVII-XVIII asr G'arbiy Ovro'pa san'atidagi uslub (stil) bo'lib, u ifodalilikning kuchliligi, badiiy-kompozitsiyalarning murakkabligi va ularning ko'p yechimlilik bilan farqlanadi.

Belgi - boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Bell D. (1919) - amerikalik sotsiolog, ijtimoiy tafakkur tarixi, siyosiy oqimlar va ijtimoiy prognoz qilish sohasi mutaxassisi; postindustrial jamiyat konsepsiyasi (1964) muallifi.

Berkli J. (1685-1753) - ingliz faylasufi, 1734 y.dan Kloyn (Irlandiya)da yepiskop, sub'ektiv idealizm konsepsiyasini rivojlantirgan; materializmni, I.Nyutonning makon haqidagi ta'limotini va cheksiz kichik kattaliklar talqinini qattiq tanqid qilgan.

Bernal J. (1901-1971) - ingliz fizigi, fan sotsiologi, jamoat arbobi, fanshunoslik asoschilaridan biri.

Bertran Rassel (1872-1970) - ingliz faylasufi va sotsiologi. Hozirgi zamon matematik mantig'i va tabiatshunosligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, xalqaro ilmiy hamkorlik uchun faol kurashchi.

Bilim - inson ongida aks etgan ob'ektiv borliq.

Bilish - bilim olish va uning rivojlanishi, muttasil chuqurlashuvi jarayoni.

Birlik - hayot faoliyati jarayonida bevosita yoki bilvosita aloqalar bilan hamjamiyatga birlashgan individlar (oila, jamoa, xalq, millat, mamlakat, insoniyat) majmui.

Bir variantlilik - ma'lum ifoda bilan bog'liq o'zgaruvchilarni ma'lum tarzda o'zgartirishda ifodani o'zgarishsiz qoldiruvchi konsepsiya.

Bor N. (1885-1962) - daniyalik fizik, atom kvant nazariyasini yaratgan, kvant mexanikasi mualliflaridan biri, atom yadrosi va yadro reaksiyalari nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, Nobel mukofoti laureati (1922); kvant mexanikasining falsafiy talqiniga katta hissa qo'shgan; muvofiqlik prinsipini ta'riflab bergan (1923). Tabiiy fanlar falsafasi bo'yicha ilmiy ishlar muallifi.

Born M. (1882-1970) - nemis fizigi, kvant mexanikasi asoschilaridan biri, V.Geyzenberg va P.Iordan bilan hamkorlikda matritsali kvant mexanikasini ishlab chiqqan va uni statik asoslagan; falsafa va fizika metodologiyasiga oid ko'plab asarlar muallifi; tinchlik va demokratiya uchun kurash harakatining faol ishtirokchisi; Nobel mukofoti laureati (1954).

Brage T. (1546-1601) - daniyalik astronom, 20 yildan ortiq yulduz, sayyora va kometalar ustida tadqiqot olib borgan; ushbu kuzatuvlarning natijalari asosida I.Kepler sayyoralarning harakatlanish qonunlarini yaratgan.

Bruno J. (1548-1600) - italyan faylasufi va shoiri; falsafaning maqsadi tabiatdan ustun Xudoni emas, balki tabiatning o'zini bilish deb hisoblagan, Kopernikning geliotsentrik nazariyasini faol himoya qilgan, tabiatning cheksizligi va olamda dunyolarning behisobligi haqidagi g'oyalarni rivojlantirgan, dahriylikda ayblanib, gulxanda kuydirilgan.

Butlerov A.N. (1828-1886) - rus kimyogar olimi, moddaning kimyoviy tuzilishi nazariyasi muallifi, kimyogar olimlar rus maktabining asoschisi, jamoat arbobi.

Bekon F. (1561-1626) - ingliz faylasufi, 1618-1621 yillarda Angliya lord-kansleri; borliqni talqin qilish matematik an'anasini rivojlantirgan; sxolastikaga qarshi faol kurashchi; fan nafaqat borliqni bilishda, balki uni inson manfaatlarida o'zgartirishda ham katta rol o'ynashini asoslab bergan; uning fan metodologiyasi, u taklif qilgan fanlar tasnifi, ilmiy hamjamiyat tashkil etish haqidagi g'oyalari fransuz ensiklopedistlari tomonidan qabul qilingan; uning g'oyalari falsafaning, ayniqsa, fanlar falsafasi va metodologiyasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Vaqt (zamon) - ikki ma'noda ishlatiladi: on (moment, payt, mas., soat 12) va interval (12 soat davomida). Umuman, vaqt hodisalar mavjudligining izchilligini ifodalaydi. U bir o'lchamli, ya'ni orqaga qaytmaydi, o'tmishdan kelajakka qarab rivojlanadi.

Veber M. (1864-1920) - nemis sotsiologi, iqtisodchisi, tarixchisi, huquqshunosi, faylasufi, din sotsiologiyasi va ijtimoiy harakat nazariyasi asoschisi; tajribadan olingan bilim bilan taxminiy muhokamani bir-biriga aralashtirib yubormaslikni talab etgan; marksizmga qarshi chiqqan.

Vena to'garagi - 1922 yilda Vena universiteti induktiv fanlar falsafasi kafedrasining rahbari Moris Shlik tomonidan tashkil etilgan falsafiy seminar atrofida uyushgan faylasuf va olimlar guruhi.

Verifikatsiya - empirik tekshirish asosida ilmiy bilimning haqiqiylikni aniqlash jarayonini ifodalovchi tushuncha.

Vern J. (1828-1905) - fransuz yozuvchisi, ilmiy-fantastik roman janrining asoschilaridan biri.

Vernadskiy V.I. (1863-1945) - rus tabiatshunosi, mineralog va kristallografi, geokimyo, biokimyo, radiogeologiya, biosfera va noosfera haqidagi ta'limot asoschilaridan biri, fan tarixchisi, jamoat arbobi; uning Yer geokimyoviy evolyusiyasida jonli narsalar roli, tabiatga inson ta'sirining o'sib borishi, insonning yagonaligi va yangi, planetar tafakkurni rivojlantirish zarurligi haqidagi g'oyalari davrimiz dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Vijdon - keng mazmunga ega axloqiy kategoriya bo'lib, unda shaxsning o'z burchini anglashi, uning bajarilishini ichki tuyg'u, e'tiqod darajasida nazorat qilishi qobiliyati ifodalanadi. Vijdon shaxsning o'z xatti-harakatlarini oliy qadriyatli axloq normalari, xususan, burch o'lchovidan turib baholashi.

Viner I.N. (1894-1964) - amerikalik matematik, kibernetika asoschisi, tabiat hodisalari, jamiyat va insonni tavsiflash va tushunish uchun ehtimollik va axborotga asoslangan yondashuvlarni keng qo'llash g'oyasini rivojlantirgan; hozirgi jamiyatda fan va texnika yutuqlarining qo'llanilishi haqidagi asarlar muallifi; uning g'oyalari XX asr ikkinchi yarmi dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Vitgenshteyn L. (1889-1951) - avstraliyalik faylasuf va mantiqchi, analitik falsafa namoyondasi, mantiqiy pozitivizm falsafasi asoschilaridan biri; klassik falsafa muammolari o'z mohiyatiga ko'ra mantiqsiz va tilimizning mantig'ini noto'g'ri tushunishga asoslangan deb hisoblagan; uning ta'kidlashicha, tildagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish falsafaning vazifasidir; Vitgenshteynning bu qarashlari lingvistik falsafa taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi.

Galileo Galiley (1564-1642)- italiyalik mashhur olim. Pizada kambag'allashgan zodagon oilasida tug'ildi. O'z shahridagi universitetida ta'lim oldi, avval tibbiyotni o'rgandi, lekin keyinchalik o'zini fizika va matematikaga bag'ishladi.

Garmoniya - bir butun narsa qismlarining o'zaro muvofiqligi.

Geyzenberg V. (1901-1976) - nemis fizigi, kvant mexanikasi asoschilaridan biri; N.Bor bilan hamkorlikda matritsali mexanika (1925) - kvant mexanikasining birinchi variantini ishlab chiqqan; noaniqliklar nisbatini ta'riflab bergan (1927); atom yadrosining tuzilishi, relyativistik kvant mexanikasi va maydon yagona nazariyasi haqidagi asarlar muallifi; Nobel mukofoti laureati (1932); uning fan falsafasi va metodologiyasi muammolariga oid ko'p soni asarlari hozirgi dunyoqarashga katta ta'sir ko'rsatdi.

Geksli K. (1825-1895) - ingliz tabiatshunosi, Ch.Darvin safdoshi va ta'limotining davomchisi; 1883-1885 yillarda - London qirollik jamiyati prezidenti; inson va maymun bir ajdoddan kelib chiqqan degan nazariyaning faol tarafdori.

Genetika - organizmlarning irsiyati va o'zgaruvchanligi qonunlari haqidagi fan.

Germenevtika - nazariya va amaliyotni, talqin qilish va tushunishni tadqiq qiluvchi falsafadagi yo'nalish. Falsafa - tarix, madaniyatni, o'zga individuallikni tushunish san'ati.

Gipoteza - shartli qat'iy aqliy xulosa chiqarish sxemasi bo'yicha mantiqan ta'riflanadigan ilmiy xulosa bo'lib, bunda ma'lum farazni tasdiqlash yoki inkor etish talab etiladi.

Gipotetik - ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Gipotetik deduktiv metod - o'zaro bog'langan gipotezalar tuzish asosida yangi bilimlar olish usuli; bu bilimlardan empirik faktlar haqida yangi qarashlar keltirib chiqariladi.

Globalashuv - ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika - globalashuv va uning oqibatlarini mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Global muammolar - muayyan mamlakatlar va mintaqalargagina emas, butun dunyoga ham daxldor bo'lgan davrning umuminsoniy muammolari majmui.

Globalizatsiya-umuminsoniy omillar asosida jahon mamlakatlari yaqinlashuvining falsafiy-sotsiologik ta'rifi.

Gnoseologiya - bilish nazariyasi to'g'risidagi ta'limot.

Gobbs T. (1588-1679) - ingliz faylasufi; geometriya va mexanika ilmiy tafakkurning ideal namunasi deb bilgan; tabiatni katta-kichikligi, shakli, o'rni va mexanik harakati (joyini o'zgartirishi) bilan farqlanuvchi jismlar majmui deb hisoblagan; ijtimoiy shartnomaga asoslangan davlat haqidagi ta'limotni rivojlantirgan.

Gyuygens V. (1629-1695) - niderlandiyalik mexanik, fizik va matematik; yorug'likning to'lqin nazariyasi asoschisi; birinchi bo'lib mayatnikli soatni ixtiro qilgan, uning nazariyasini yaratgan; Fransiya Fanlar akademiyasining birinchi vakili.

Deduksiya - tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo'lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo'l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegrasiya - butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm - Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok yetmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Demarkatsiya - ilmiy va noilmiy bilimlarni ajratish falsafiy prinsipi.

Demografiya - aholi, aholi sonining o'zgarishi va migratsiyasi haqidagi ta'limot.

Demokrit (taxm. mil. avv. 460-370) - qadimgi yunon faylasufi, atomistik nazariya asoschilaridan biri; qomusiy bilimlarga ega bo'lgan; o'z davrida ma'lum deyarli barcha fanlar: matematika, fizika, astronomiya, tibbiyot va boshqalar bilan shug'ullangan.

Determinizm - barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog'langanligi haqidagi falsafiy ta'limot.

Dialektika - harakat, rivojlanish, o'zgarish haqidagi falsafiy ta'limot.

Diaxroniya - muayyan jarayon rivojlanishining tarixiy ketma-ketligi.

Didro D. (1713-1784) - fransuz faylasufi, yozuvchisi, ma'rifatparvari, fransuzcha "Ensiklopediya" tashkilotchisi va muharriri (1751-1780); "Falsafiy fikrlar" nomli ilk falsafiy asari (1746) Fransiya parlamenti qaroriga binoan yoqib yuborilgan; tabiat haqidagi materialistik ta'limotni rivojlantirgan; biologik evolyusiya haqidagi farazni ilgari surgan.

Diltey V. (1883-1911) - nemis madaniyat tarixchisi, faylasuf, «hayot falsafasi» oqimining namoyandasi, «tushunuvchi psixologiya» asoschisi; falsafaning vazifasi hayotni tushunish deb bilgan va shundan kelib chiqib hayotni madaniy-tarixiy hodisa deb talqin qilgan.

Din - dunyo va insonni Xudo yaratganiga so'zsiz ishonchga asoslangan ta'limot.

Diniy dunyoqarash- dunyoga, uning tuzilishiga hamma narsani Xudo yaratgan degan nuqtai nazardan yondashish.

Differensiatsiya - butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo'linishi, parchalanishi, ajralishi.

Dunyoning manzarasi - dunyo rivojlanishining umumiy xossalari va qonuniyatlari haqidagi qarashlarning yaxlit sistemasi.

Dunyoqarash - insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek odamlarning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.

Yevklid (mil. avv. III asr) - qadimgi yunon matematigi; bizgacha yetib kelgan matematikaga oid birinchi nazariy risola muallifi; asosiy asari - «Negizlar» da planimetriya, stereometriya hamda sonlar nazariyasiga oid bir qancha masalalar yoritilgan.

Zardushtiylik - Markaziy Osiyodagi qadimgi diniy-falsafiy ta'limot. Unda ikki asos: yovuzlik va ezgulikning kurashi haqida so'z yuritiladi. Asoschisi - payg'ambar Zardusht.

Ibn Rushd (Averroes) (1126-1198) - arab faylasufi va tabibi, yetti jildli qomusiy tibbiy asar «Kitob al-kulliyot» (tibbiyot bo'yicha umumiy qo'llanma) muallifi. Aristotel asarlariga sharhlar yozgan.

Ibn Sino (Avitsenna) (980-1037) - jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy olim, faylasuf, tabib. Uning ilmiy-falsafiy «Kitob ash-shifo» va «Tib qonunlari» asarlari jahon madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ideallashtirish - nazariy va empirik bilimni tuzish va uning faoliyat ko'rsatish xususiyatini ochib beruvchi ilmiy metod, fikriy konstruksiya.

Ideal - mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur, xayol yoki orzudagi narsa.

Ierarxiya - bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo'ysunishi.

Ijtimoiy falsafa - jamiyatning vujudga kelishi, rivojlanishi va uning istiqbollari haqidagi falsafiy ta'limot.

Izotrop - barcha yo'nalishlarda bir xil.

Ilmiy muammo - ayni shuning o'zi, lekin fanga tatbiqan olganda.

Ilmiylik mezoni - borliqning ob'ektiv qonunlarini bilish.

Indeterminizm - determinizmga qarama-qarshi ta'limot.

Integrasiya - birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv - o'ziga, o'z ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.

Imitasiya - taqlid qilish, soxtalashtirish.

Imre Lakatos (1922-1974), inglizlik fan tarixchisi. Vengriyada tug'ilgan, matematikaning falsafiy masalalari bo'yicha dissertatsiyasini Moskva universitetida tayyorlagan. Uning fikrlari bilan mufassalroq tanishish uchun qarang: "Dokazatel'stva i oproverjeniya" (M., 1967), "Fal'sifikatsiya i metodologiya nauchno-metodologicheskix programm" (M., 1995).

Intellekt - tafakkurning o'tmish, hozirgi zamon va kelajakni oqilona bilish qobiliyati.

Intuitsiya - aqliy mushohada yuritish orqali dalil isbotlarga tayanmaydigan yangi bilim olish.

Irratsionalizm (lot. irracionalis - ongsizlik, noma'lumlik (aqlsizlik)- ongsizlik afzalligini olamning va bilish jarayonining asosiy xususiyati, deb hisoblovchi falsafiy ta'limot. Irratsionalistik oqimlar quyidagi bilish usullarini: ekstaz (neoplatoniklar), vahiy (islom), g'oyibdan bilish (xristianlik), nirvana (buddizm), ishroq (so'fiylik), mistik intuitsiya, muhabbat(din, ekzistensializm)ni targ'ib qiladilar.

Isaak Nyuton (1643-1727) - buyuk ingliz fizigi, astronomi, matematigi, klassik va samoviy mexanika asoschisi, ko'p sonli ilmiy asarlar muallifi.

Kalom (arab. nutq, so'z) - islom ilohiyot ilmi. VIII asrda paydo bo'lgan taniqli ilohiyotchi al-Ash'ariy (873-935) tomonidan asos solingan.

Kant I. (1724-1804) - nemis olimi va faylasufi, nemis klassik falsafasining asoschisi; Quyosh sistemasi fazoda tarqoq holda joylashgan materiya zarralarining o'zaro yaqinlashuvidan vujudga kelgan degan kosmogonik gipotezani ishlab chiqqan; ko'plab galaktikalar mavjud degan farazni ilgari surgan; u rivojlantirgan ta'limotga ko'ra, inson "narsa

o'zida" (mohiyat)ni bilishga qodir emas, u faqat "biz uchun narsa"ni, ya'ni hodisalarni bilishi mumkin.

Karl Popper (1902-1994), XX asr mashhur faylasufi, Venada tug'ilgan, so'ng universitetda avval fizika va matematikani, keyin falsafani o'rgangan. 1937 yilgacha Venada ishlagan, Vena to'garagi munozaralarida ishtirok etgan, uning dasturilamal qoidalarini tanqid qilgan. So'ngra Yangi Zelandiyaga ko'chib ketgan va bu yerda urush yillarida "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" nomli mashhur kitobini yozgan.

Katarsis -(grek. Katharsis - poklanish) qadimgi yunon estetikasida san'atning kishi ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan xususiyatini ifodalovchidir. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushuncha san'atning kishi ongiga, xulqiga, e'tiqodiga, ruhiy dunyosiga birbutun, yaxlit tarzda estetik ta'sir ko'rsatishi tabiatini ifodalovchi kategoriyadir.

Karnap R. (1891-1970) - nemis-amerika faylasufi, mantiqshunos, mantiqiy pozitivizmning yetakchi vakili; fan falsafasi, mantiqiy sintaksis va semantika nazariyasi, individual mantiqqa oid asarlar muallifi; hozirgi zamon falsafasi fan tilini mantiqiy tahlil qilish bilan shug'ullanishi kerak, degan g'oyani himoya qilgan.

Kauzallik - sababiyat, biri (sabab) boshqasini (oqibatni) belgilovchi hodisalarning biri ikkinchisidan kelib chiqishini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Kepler I. (1571-1630) - nemis astronomi, sayyoralar harakati qonunlari (Kepler qonunlari)ni kashf etgan; o'z asarlarida N.Kopernikning geliotsentrik ta'limotini asoslagan va rivojlantirgan; I.Kepler tadqiqotlari nafaqat astronomiyaga, balki yangi davr fizikasiga ham asos bo'ldi.

Qiyomat kuni - diniy kitoblarda bashorat qilingan "oxirzamon".

Kindiy, al-Kundiy (800-879) - mashhur arab faylasufi va olimi, sharq aristotelizmi asoschilaridan.

Kolumb X. (1451-1506) - dengizchi sayyoh, asli genuyalik; uning kashfiyotlaridan keyin Amerika qit'asi geografiya faniga ma'lum bo'ldi va yevropaliklar tomonidan faol o'zlashtirila boshlandi.

Konseptualizatsiya - to'plangan empirik bilimlarga ularning nazariy uyushqoqligini ta'minlovchi ontologik tasavvurlarni kirigizish; o'rganilayotgan ob'ektlarning tabiati haqidagi tushunchalarning aloqalari sxemasi.

Kont O. (1798-1857) - fransuz faylasufi, pozitivizm asoschilaridan biri, sotsiologiya asoschisi; fan va falsafa hodisalarning sabablarini

aniqlashga harakat qilmasligi, balki ular qanday sodir bo'lishini o'rganishi kerak, deb hisoblagan; jamiyat taraqqiyotini belgilovchi insoniyat aql-zakovati evolyusiyasining uch bosqichi (ilohiy, metafizik, pozitiv yoki ilmiy) nazariyasini ilgari surgan; fanlar tasnifini ishlab chiqqan.

Kopernik N. (1473-1543) - polyak astronomi, vrach, davlat arbobi; dunyoning geliotsentrik sistemasi asoschisi; uning asarlari yangi davr dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Koevolyusiya (lot.co-evolutio - birgalikda rivojlanish) - bitta sistemani evolyusiyasi boshqa sistemaning o'zgarishi, rivojlanishi bilan bog'liqligi, hamkorlikda dunyoning murakkab sistemasi va o'zaro aloqadagi evolyusiyasi. K. tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlik va bog'lanish asosida rivojlanishida nomoyon bo'ladi. Jamiyat(noosfera, texnosfera)ning rivojlanishi tabiat(biosfera)ga bog'liqdir.

Kreationsizm - butun borliqni Xudo yo'qlikdan yaratilganligi haqidagi noilmiy ta'limot.

Kun T. (1922-1996) - amerikalik fan tarixchisi va faylasufi, fan falsafasi va metodologiyasidagi tarixiy maktab yetakchilaridan biri; uning asarlari fan falsafasi va metodologiyasi muammolari doirasining kengayishiga va fanlar tarixi bilan metodologiyasi o'rtasida aloqaning mustahkamlanishiga imkoniyat yaratdi; "Ilmiy inqiloblar strukturasi" (1962) asari bilan dovruq taratdi, unda fanning tarixiy-mantiqiy dinamikasini ko'rsatib berdi.

Lakatos I. (1922-1974) - ingliz tarixchisi va fan faylasufi, ilmiy bilimning rivojlanish qonunlarini o'rganishga va fan metodologiyasiga katta hissa qo'shgan.

Leybnis G.V. (1646-1716) - nemis faylasufi, matematigi, fizigi, huquqshunosi, tilshunosi, kashfiyotchisi; borliq qarama-qarshiliklardan iborat emas, deb hisoblagan; uning fikricha, real dunyo o'zaro bo'linmas ruhiy Substansiya – monadalardan iborat.

Lobachevskiy N.I. (1792-1856) - rus matematigi, noevklid geometriyasi asoschilaridan biri; universitet ta'limi va xalq maorifining taniqli arbobi; Qozon universiteti rektori (1827-1846).

Logos - dastlab dunyoning umumiy qonuni, negizini, undagi tartib va uyg'unlikni ifodalagan atama; tushuncha, so'z va ma'noning birligi.

Maks Veber (1864-1920), nemis faylasufi, sotsiologiya klassiklaridan biri, ushbu fanning rivojlanishi, uning muammolarini aniqlash va hal qilish ishiga katta hissa qo'shgan shaxs.

Maksvell J. (1831-1879) - ingliz fizigi, klassik elektrodinamika asoschisi; statistik fizika asoschilaridan biri; uning asarlari fizik borliqning yangi turi - maydon aniqlanishiga olib keldi.

Mantika - irim-sirimlarga asoslangan eskicha qarashlarda fol ochish, kelajakni bashorat qilish usullari.

Maltus T. (1766-1834) - ingliz iqtisodchisi, ruhoni; demografiya asoschilaridan biri; "Nufus qonuni to'g'risida tajribalar" (1798) asarida aholi o'sishi uni tirikchilik vositalari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar oshishiga olib keladi, degan fikrni birinchi bo'lib ilgari surdi va tug'ilishni tartibga solish zarurligi masalasini ko'tardi.

Materializm - dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

Max E. (1838-1916) - avstriyalik fizik va faylasuf, aerodinamika jarayonlarini o'rgangan (bu sohada bir qancha kattaliklar va tushunchalar uning nomi bilan atalgan - Max soni, Max konusi va b.); zarba to'lqinini kashf etgan; jismning inersiya bo'yicha harakati uning Olam butun moddasi bilan o'zaro ta'siri natijasi degan prinsip (Max prinsipi)ni taklif qilgan.

Mendel G. (1822-1884) - avstriyalik biolog, genetika asoschisi; monax, 1868 y.dan Bryunn (Avstro-Vengriya)dagi Avgustin monastiri boshlig'i; irsiyat qonunlarini aniq ta'riflab bergan, irsiylanish jarayonining nazariy modelini yaratgan, bu ta'limot uning sharafiga mendelizm deb ataladi.

Merton R. (1868-1936) - amerikalik sotsiolog, sotsiologiyadagi strukturaviy-funksional yo'nalish vakili; uning asarlari strukturaviy funksionalizm nazariyasi va metodologiyasi, fan va ilmiy bilish sotsiologiyasiga, byurokратиyani, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan; AQShdagi ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, kino, matbuot)ni empirik tadqiq qilgan.

Metafizika - Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

Metod - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan amaliy yoki nazariy faoliyat usuli.

Metodologiya - bilish metodlari va shakllarida haqidagi falsafiy ta'limot.

Mill Jon Styuart(1806-1873) - ingliz faylasufi, mantiqchisi, iqtisodchisi, jamoat arbobi; pozitivizm falsafasini ishlab chiqqan, fanning fenomenalistik talqinini himoya qilgan; "Mantiq sistemasi" fundamental asarining muallifi, unda mantiqning induktivistik talqini fanning umumiy metodologiyasi sifatida rivojlantirilgan.

Mistika - sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

Mifologik dunyoqarash - "mif" tushunchasi yunoncha mythos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. **Mif** - bu turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.

Moddiylashtirish-ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus - predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

Monizm - plyuralizmga zid o'laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Modellashtirish - bilish ob'ektlarini tadqiq qilish metodi; mavjud predmetlar kelajakda qanday namoyon bo'lishini bilish uchun ularni tuzish va o'rganish.

Muammo - yechimi muayyan amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan to'siq, masala, vazifa. Boshqacha qilib aytganda, bu bilmaslik haqidagi bilim, javob topish kerak bo'lgan savoldir.

Muhabbat - insonning yeng oliy tuyg'u, hissiyotini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u tamoyillar tizimining markaziy unsure hisoblanadi. Barcha axloqiy imperativlar – norma, talablar, tamoyillar mazkur tuyg'u, hissiyot orqali o'zlashtirilgandagina oliy qadriyatlik ahamiyatiga yega bo'ladi.

Nazariya (ilmiy) - voqelikning u yoki bu sohasidagi qonuniyatlar haqida yaxlit tasavvur beruvchi ilmiy bilimni tashkil etish shakli.

Naturfalsafa - qadimda va o'rta asrlarda tabiat haqidagi falsafiy ta'limot, uning mavhum talqini.

Negativ - salbiy, biror narsaga zid.

Nikolay Kopernik (1473-1543) - mashhur astronom va mutafakkir. Ptolemeyning quyosh sistemasi tuzilishi haqidagi ko'p asrlik geotsentrik qarashini inkor etdi, tabiatshunoslikni teologiyadan ozod qildi.

Noosfera - aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Nyuton Isaak. (1643-1727) - ingliz fizigi va matematigi, mexanika va astronomiyaning nazariy asoslarini yaratgan, butun olam tortishish qonunini kashf etgan, differensial va integral hisob asoslarini ishlab chiqqan (G.Leybnis bilan bir qatorda), ko'zguli teleskop ixtiro qilgan, optikaga oid muhim eksperimental asarlar muallifi; eng muhim ilmiy asari - "Natural falsafaning matematik negizlari" (1687), unda yer va osmon mexanikasi sistemasi yaratilgan va osmon jismlarining harakat nazariyasi ishlab chiqilgan.

Obraz - amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Ogyust Kont (1798-1857), fransuz faylasufi, pozitivizm va sotsiologiya asoschisi. Sen-Simondan keyin insoniyat intellektual taraqqiyotining pirovard natijada butun kishilik taraqqiyotini belgilovchi uch bosqichlilik g'oyasini rivojlantirdi.

Okkultizm - maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini ye'tirof yetuvchi ta'limot.

Ongsizlik - inson maxsus metodlarsiz anglay olmaydigan faol ruhiy holatlar, operatsiyapar va harakatlarning majmui.

Ong osti sohasi- ruhiyatning har xil anglash mumkin bo'lmagan (ong osti va ongsiz) tizimlarini yoki ularning majmuini ifodalovchi tushuncha.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

Panteizm - Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

Paradigma - mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui. Ilmiy vazifalarni hal kilishda namuna sifatida olingan nazariy, metodologik va aksiologik ko'rsatmalar tizimi.

Passionar - ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

Peripatetiklar (yunon. peripatiwt - sayr etaman) - qadimgi yunon mutafakkiri Aristotelning shogirdlari va izdoshlari bo'lib, peripatetiklar Litseyda, tinglovchilar bilan birga, sayr qilish chog'ida, ma'ruzalar o'qishni odat qilib olganlar.

Permanent - doimiy, uzluksiz.

Persepsiya - idrok etish.

Pifagor (taxm. mil. avv. 570-500) - qadimgi yunon faylasufi, matematigi, din va siyosiy arbobi; pifagoreizm asoschisi, ushbu ta'limotga ko'ra hamma narsaning zamirida son yotadi; geometriyada isbotlashning joriy etilishi, planimetriyani tuzishga ilk urinishlar, o'xshashlik haqidagi ta'limotning yaratilishi, to'g'ri burchakli uchburchak tomonlarining nisbati haqidagi teoremaning isboti Pifagorga tegishli deb hisoblanadi.

Polani M. (1891-1976) - ingliz kimyogar olimi va faylasufi; falsafa va fan sotsiologiyasiga oid bir qancha asarlar muallifi, eng mashhur asari - "Shaxsiy bilim".

Pragmatizm - maqsadga muvofiq faoliyatga inson mohiyatining bosh xossasi deb qaraydigan falsafiy ta'limot.

Prigojin I. (1917-2003) - belgiyalik fizioximik; nomutanosib termodinamika sohasidagi asarlari bilan mashhur; sinergetika asoschilaridan biri; fanni falsafiy tushunishga oid bir qancha asarlar muallifi, ularda murakkab sistemalarning vujudga kelishi va faoliyati, o'z-o'zidan tashkil bo'lish, vaqt, tasodif tushunchalarining o'ziga xos talqini berilgan; Nobel mukofoti laureati (1977).

Prognoz qilish - bashorat qilish, oldindan aytish; muayyan hodisaning kelajakdagi holati to'g'risida taxminiy mulohaza yuritish.

Psixoanaliz - Z. Freyd tomonidan ishlab chiqilgan ongsiz ruhiy hodisalar va jarayonlarni o'rganish va tushuntirishga yo'naltirilgan psixodiagnostik va psixoterapevtik metodlar majmui.

Ratsionalizm (lot. Rationalis - onglilik) gnoseologiya va prakseologiyadagi yo'nalish. Bilish jarayonida aqlni hissiy (sezgi, idrok, tasavvur) bilishga nisbatan ustuvorligini tan oladi.

Realizm (lot. realis - voqeiy, moddiy) - ijodiy metod bo'lib, uning asosida voqelik, kishilarning xatti-harakati konkret ijtimoiy shart-sharoit, tamoyili yotadi. Realizm romantizmga tanqidiy yondashish natijasida Ovro'pada XIX asming 60-yillarida shakllanadi. Pushkin, Stendal, Balzak, Dikkens kabi yozuvchilar ana shunday uslubda asarlar yozgan ilk ijodkorlardir. Realizm faqat badiiy adabiyotga taaluqli bo'lmasdan, san'atning deyarli barcha turlariga, xususan, musiqa, tasviriy san'atda ham b. Mazkur uslub tamoyillari me'morchilik, tasviriy san'at va badiiy adabiyotda qo'llaniladi.

Reduksionizm - murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

Relyativizm - bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Rene Dekart (1596-1650) - fransuz faylasufi va matematigi, klassik realizm vakili, eski an'analarni qayta ko'rish talabi bilan chiqqan "yangi falsafa" va yangi fan asoschilaridan biri.

Refleksiya - o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Rim klubi - olimlar va jamoat arboblarning xalqaro nohukumat tashkiloti. Faoliyati davrimizning global muammolarini tadqiq qilish va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Romantizm (frans. romantis) - san'at, madaniyat sohasidagi badiiy metod bo'yicha farqlanadigan yo'nalish. Romantizm XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida dastlab Fransiya keyinchalik Germaniya va boshqa Ovro'pa mamlakatlarida badiiy va g'oyaviy harakat sifatida yetakchi mavqeini yegallaydi.

Sensualizm - hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.

Sen-Simon (1760-1825) - graf, fransuz faylasufi, sotsiologi; ilmiy sotsiologiya fani zarur degan g'oyani ilgari surgan; jamiyat taraqqiyoti unda hukm suruvchi falsafiy va ilmiy g'oyalarning almashishi bilan bog'liqligini ta'kidlagan; tarixda odamlarning iqtisodiy faoliyati, mulk shakllari va sinflar o'rtasidagi munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb qayd etgan.

Simvol - biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinergetika - tabiat va jamiyatda murakkab sistemalar o'z-o'zidan tashkil bo'lishi va rivojlanishi haqidagi hozirgi zamon falsafiy nazariyasi.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

Skeptisizm - inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb ye'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

Smit A. (1723-1790) - shotland iqtisodchisi va faylasufi; uning tadqiqotlari ta'sirida siyosiy iqtisod ishlab chiqilgan iqtisodiy bilimlar tizimiga aylandi; bozor iqtisodiyoti nazariyasining rivojlanishiga katta

hissa qo'shgan; bozor iqtisodiyoti o'z-o'zini tartibga solish xossasiga ega va unga har qanday aralashish jamiyat uchun salbiy oqibatlariga olib keladi, deb hisoblagan; eng muhim asari - "Boylik tabiati va sabablari haqida tadqiqot" (1776).

Spenser G. (1820-1903) - ingliz faylasufi va sotsiologi, pozitivizm asoschilaridan biri, umumiy evolyusiya haqidagi ta'limotni rivojlantirgan; sotsiologiya organik maktabi asoschisi.

Spinoza B. (1632-1677) - niderlandiyalik faylasuf, dunyoning yaxlit manzarasini yaratishga intilishida Xudo va tabiat bir, degan fikrdan kelib chiqqan, bu yagona substansiya o'z-o'zining sababchisi, u o'zining mavjudligi uchun boshqa narsaga muhtoj emas, deb hisoblagan.

Stereotip - ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Stoxastiklik - tasodif, ehtimollik.

Substansiya - birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Suqrot (mil. avv. 470/469-399) - qadimgi yunon faylasufi; dialog haqiqatning tagiga yetish usuli deb bilgan; dogmatizmga qarshi chiqqan; o'zini aql o'rgatuvchi emas, balki boshqalarni haqiqatga intilishga da'vat etishga qodir odam deb hisoblagan.

Ssientizm - jamiyat taraqqiyotida fan eng muhim rol o'ynaydi degan fikrga asoslangan ta'limot bo'lib madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtiradi.

Tabiatshunoslik - XVII-XVIII asrlarda tabiat, uning rivojlanishi va o'zgarishi haqidagi fanlar va ilmiy bilimlar yig'indisi tarzida shakllangan ta'limot.

Tabu - biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Tafakkur (arabcha-fikrlash) bilishning yuksak bosqichi bo'lib, bilishning dastlabki hissiybilish (sezgi, idrok, tasavvur) bosqichidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Tafakkur shakllari - fikr mazmunini tashkil yetuvchi qism (elementlar)larning o'zaro bog'lanish usuli va shu asosda fikrning muayyan, izchil tizimga ega bo'lishidir.

Mazkur bog'lanish uch xil bo'ladi: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.

Tafakkur qonunlari - fikr qismlari (elementlari), shakllarining izchil, zaruriy va muhim bog'lanishlari bo'lib, ular to'g'ri, mantiqiy fikr yuritish uchun zarur bo'lgan tamoyillardir.

Teologiya - diniy ta'limotlar tizimi bo'lib xudoning mavjudligini asoslovchi ta'limot.

Teosentrizm - dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Texnik bilimlar - ilgari ma'lum bo'lmagan narsa yoki hodisaga qaratilgan bilimlar.

Texnika - inson tomonidan yaratiladigan, uning yashashi va ishlashi uchun zarur bo'lgan predmetlar sistemasi.

Texnofobiya - inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini texnika to'liq qamrab olishidan qo'rqish.

Texnogen - texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

Texnokratik - texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

Texnooptimizm - turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm - fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb ye'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat - kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Tolerantlik - o'zganing fikri, e'tiqodi va diniga bag'rikenglik.

Tomas Kun (1922-1996), amerikalik fan tarixchisi va faylasufi. Dastlab Kun Garvard universitetida nazariy fizikani o'rgandi, ammo keyinchalik fan tarixi bilan shug'ullana boshladi. Birinchi kitobi (1957 yil) fanda Kopernik va uning izdoshlari yasagan inqilobga bag'ishlanadi. 1962 yilda chop etilgan "Ilmiy inqiloblar strukturasi" kitobi bestsellerlar qatoridan o'rin olgan, jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan va qayta-qayta nashr etilgan.

Toffler O. (1928) - amerikalik faylasuf va sotsiolog, postindustrial jamiyat (o'ta industrial sivilizatsiya) konsepsiyasi mualliflaridan biri; asosiy asarlari: "Kelajak bilan to'qnashuv", "Uchinchi to'lqin".

Tulmin S. (1922) - amerikalik faylasuf; fanni tadqiq qilish evolyusionistik dasturini ishlab chiqqan; fanga fan tarmoqlari va professional institutlar majmui deb qaraydi; fan tarixi ilmiy nazariyalar

zamidida yotgan oqilonalik va tushunish standartlarining almashishi deb hisoblaydi.

Tushuncha - narsa, hodisalarning muhim va umumiy belgilarini inson ongida yaxlit tarzda aks yettiruvchi tafakkur shakli sifatida tilning grammatik shakli soʻz (nom) orqali ifodalanadi. Masalan, "til" soʻzi ayni paytda tushunchadir, chunki unda muayyan ijtimoiy hodisaning oʻziga xos xususiyatlari - muhim belgilari (aloqa vositasi, fikrning voqe boʻlishi, belgilar tizimi yekanligi va boshqalar) umumlashtirilgan tarzda ifodalanadi.

Tushunchaning mazmuni - fikrning mantiqiy tarkibi boʻlib, unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari muayyan tizim tarzida bogʻlanadi. Shunga koʻra tushunchaning mazmuni muhim belgilarining yigʻindisi hisoblanadi. Masalan "til" tushunchasining mazmunini tilning qayd yetilgan ijtimoiy hodisa sifatidagi muhim xususiyatlari tashkil yetadi.

Tushunchaning hajmi-fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilariga koʻra turlarining yigʻindisidir. Masalan, "til" tushunchasining hajmini tilning muhim belgilariga ajratiladigan barcha tabiiy va sunʼiy til turlari tashkil etadi.

Uilʼyam Uevell, ingliz pozitivist faylasuflari, fan falsafasi asoschilari.

Uzluksizlik - borliqdagi narsa va hodisalarning oʻzaro chambarchas aloqadorligining ifodasi, yangilanish jarayonidagi shakllanish va oʻzgarish.

Universum - yagona Olam, yaxlit dunyo.

Uchinchisi istisno qonuni (lot. Lex exclusi +ertii sive medii inter duo contradictoria) - formal mantiqning asosiy qonunlaridan biridir. Bu qonunga koʻra, bir xil vaqt va munosabat doirasida aytilgan oʻzaro zid mulohazalardan biri albatta chin boʻladi.

Fazo - borliqning asosiy mavjudlik shakllaridan biri boʻlib, u obʼektlarning oʻzaro joylashish tartibi, koʻlami, hajmi, oʻlchamlari, obʼektni tashkil etuvchi nuqtalarning oʻzaro joylashish vaziyati kabi xususiyatlarini ifoda etadi.

Fakt (ilmiy) - obʼektiv haqqoniy deb isbotlangan va mazmuni hamisha oʻzgarishsiz qoladigan hodisa haqidagi ilmiy bilim.

Fales (mil. avv. 625-547) - qadimgi yunon faylasufi, afsonalarga koʻra, «yetti donishmand»dan biri, antik va Yevropa falsafasi va fani asoschilaridan biri; yunon astronomiyasi va geometriyasiga asos solgan;

quyosh tutilishini bashorat qilgan (mil. avv. 585 yil), bir qancha geometrik teoremlarni birinchi marta isbotlagan.

Falsafa - tushunchasi yunoncha "fileo" - sevaman va "sofia" - donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Falsafiy dunyoqarash - miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga kelib asosan mif va din ta'sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U abstrakt nazariy fikrlash qobiliyati va (to'plangan bilimlar ko'rinishida) real asoslarga ega bo'lishi natijasida o'z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko'tarildi. Bunga, hech shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi ham imkoniyat yaratdi.

Fal'sifikatsiya qilinish - ilmiy va noilmiy bilimlarni ajratish (demarkatsiya) prinsipini ifodalovchi konsepsiya.

Fan - bilish faoliyatining yangi, ob'ektiv, sistemali tarzda uyushgan bilimlar ishlab chiqishga yo'naltirilgan alohida turi.

Fan falsafasi - ilmiy bilimning tuzilishi va rivojlanishini tadqiq qiluvchi falsafiy oqim.

Fan etosi - olim xulq-atvorini belgilaydigan axloq qoidalari majmui.

Fanning insonparvarlashuvi - fanda ma'rifiy, ma'naviy va falsafiy jihatlarning mushtarakligi.

Fan-texnika taraqqiyoti - fan va texnikaning birlashishi bilan tavsiflanadigan ishlab chiqarish kuchlarining sifat jihatidan rivojlanishi. Fan va texnikaning yagona, o'zaro bog'liq tarzda ilgarilab rivojlanishi.

Fauna - barcha turdagi hayvonlar majmui.

Fenomen - insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya - bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

Fikrlash - bilishning oliy shakli, borliqning tushunchalar, mulohazalar va mushohadalaridagi mantiqiy in'ikosi.

Fiqh (arab.-tushunish, bilish) - musulmonlarning xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi islom huquqshunosligi, islom dini ijtimoiy me'yorlari majmuasi. Sunna, ijmo va qiyosga asoslanadi. Fiqhda musulmon huquqining asoslari va ilk manbalari asosida ko'rib chiqiladi.

Flora - o'simliklar dunyosi.

Flukuatsiya - o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

Forobiy Abu Nasr (870-950) - Sharq faylasufi va qomusiy olimi, Aristotel va Platon asarlariga sharhlar yozgan; uning "Musiqqa haqida katta risola" asari - Sharq va qadimgi yunon musiqqa tizimi haqidagi muhim manba; Sharqda ham, G'arbda ham falsafa va fanning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Foma Akvinskiy (1225-1274) - italyan faylasufi va ilohiyotchisi; ortodoksal sxolastikani tizimga solgan; dominik mazhabiga mansub monax; tomizm asoschisi; asosiy asarlari - "Ilohiyot yig'indisi" va "Dahriylarga qarshi yig'indi"da yetuk sxolastika ratsionalistik izlanishlariga yakun yasagan.

Formallashtgan mantiq - (umumiy) tafakkurning shakllari va qonunlarini to'g'ri, mantiqiy fikrlash usul va tamoyillari tarzida o'rganadigan falsafiy fan.

Frank F. (1884-1966) - avstriya-amerikalik fizik va faylasuf; neopozitivizm namoyandasi; fizikaning asosiy tushunchalarini falsafiy tahlil qilish, fizik bilimlar sohasini mantiqiy tahlil qilish bilan shug'ullangan, biologiyada vitalizmni tanqid qilgan.

Freyd Z. (1856-1939) - avstriyalik nevropatolog, psixiatr va psixolog, psixoanaliz asoschisi; bosh miya fiziologiyasi va anatomiyasini o'rgangan, nevrozlar muammosi bilan shug'ullangan; seksuallik rivojlanishining psixik jihatlarini birinchilardan bo'lib o'rgana boshlagan; 1907 yilda ongsizlikning klassik ta'rifini bayon qilgan; "Men va u" (1923) asarida shaxsning psixologik strukturalari haqidagi ta'limotni rivojlantirgan.

Fuqarolik jamiyati - inson, fuqaro markaziy o'rin egallaydigan erkin demokratik va huquqiy jamiyat.

Futurologiya - kelajak haqidagi fan.

Hamjamiyat- ma'lum belgilarga qarab, xalqlar va davlatlarning birlashishini belgilovchi tushuncha (siyosiy, iqtisodiy).

Sharq Renessansi – IX-XII va XIV-XV asrlarda arab Sharqida va Markaziy Osiyoda ma'naviy va madaniy qadriyatlarning tiklanishi, falsafa va fan, adabiyot va san'atning jadal rivojlanishi davri.

Shlik M. (1882-1936) - avstriyalik faylasuf va fizik; mantiqiy pozitivizm dastlabki bosqichi namoyandasi; pozitivistik fan falsafasini faol ishlab chiqqan Vena to'garagi asoschisi; fan falsafasi muammolari, zamon, makon, sababiyat, ehtimollik tahlili bilan shug'ullangan.

Shpengler O. (1880-1936) - nemis faylasufi, «hayot falsafasi» oqimining vakili, madaniyat falsafasi asoschilaridan biri; asosiy asari – “Yevropaning so'nishi” (1918-1922); yevropotsentrizmga, tarix jarayonining «chiziqli» yo'nalishiga qarshi chiqqan, to'laqonli, lekin har xil madaniyatlarning ko'pligi g'oyasini himoya qilgan.

Evolyusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

Evristik - ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Evristika - haqiqatni topish san'ati; nazariy tadqiqot mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.

Egalitarizm - umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

Ezoterizm - borliqni noilmiy bilish shakli.

Ezgulik - kategoriyasida tarixiy shakllangan axloqiy ideal, ya'ni komil inson, mukammal jamiyat haqidagi tasavvur, qarashlar va unga etishishga, ro'yobga chiqarishga bo'lgan sa'yi-harakatlar ifodalanadi.

Eynshteyn A. (1879-1955) - hozirgi zamon fizikasi asoschilaridan biri, nisbiylik nazariyasi muallifi, kvant nazariyasi va statistik fizika asoschilaridan biri, Nobel mukofoti laureati (1921); zamon va makon, ularning o'zaro aloqasi, ob'ektning zamon-makon munosabatlari uning harakati tezligiga, tortishish kuchlariga bog'liqligi haqidagi yangi qarashlarni rivojlantirgan; M.Plank bilan birga kvant fizikasiga asos solgan.

Ekzistensializm - diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

Ekologiya - 1.Jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi haqidagi fan; 2. Atrof muhitni saqlash uchun kurash.

Ekologik muammo - jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining bo'zilishi.

Ekologik tanglik - ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlarini orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Ekstrapolyatsiya - ob'ektning muayyan qismini kuzatish natijasida chiqarilgan xulosalarni uning boshqa qismiga tatbiq etish.

Eksperiment (ilmiy) - hodisalar va ob'ektlar o'rtasidagi aloqalar haqida bilim olish yoki ularning yangi xossalarini topishga yordam beruvchi empirik bilish metodi.

Eksplikasiya - u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob'ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekstravertiv - sirtga qaratilgan.

Emanatsiya - oliy va mukammal ontologik bosqichdan nisbatan nomukammal va quyi bosqichlarga o'tish jarayonini tavsiflovchi neoplatonizm falsafiy ta'limoti.

Empirizm - hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Empirik - tajribada ko'rilgan.

Engelgardt V.A. (1894-1984) - rus biokimyogar olimi; asosiy asarlari fosforli organik birikmalar almashuviga, energetikada va hujayraning fiziologik funksiyalarida ularning roliga bag'ishlangan; molekular biologiya asoschilaridan biri.

Entropiya - tizim, sistemaning muayyan holatda qolish (saqlanish) mezonini.

Epistemologiya - bilim, uning tuzilishi, tuzilmasi va rivojlanishini tadqiq qiluvchi falsafiy-metodologik ta'limot.

Estetika - (yunoncha aisthetikos - hissiy idrok etiladigan) bu insonning tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga bo'lgan ma'naviy-ruhiy hissiyoti munosabatida shakllanadigan umuminsoniy ahamiyatga molik badiiy, estetik qadriyatlarining yaratilishi, o'zlashtirilishi haqidagi falsafiy fandır.

Estetik ong - ongning yuksak shakli (bosqichi) bo'lib, borliqda narsa, hodisalar umuminsoniy g'oyalar mezonini bo'yicha emotsional - his-tuyg'uli tarzda in'ikos etiladi va ma'naviy qadriyatligi nuqtai nazaridan turib baholaniladi. Shaxs estetik ongi - estetik ehtiyoj, estetik his-tuyg'u,

did va estetik ideal kabi unsurlarning o'zaro birligida tashkil topgan murakkab anglash tizimidir.

Estetik ehtiyoj - ma'naviy ehtiyojning yuksak bosqichda namoyon bo'lish shaklidir. Bu quyidagilar bilan izohlanadi: Estetik ehtiyoj estetik his-tuyg'u negizida shakllanadi va shunga ko'ra u insonning narsa, hodisalardagi nafosatlikni, go'zallikni his etish va undan zavqlanish, lazzatlanishga bo'lgan intilishi, qiziqishi, ixtiyori, talablari hisoblanadi;

Estetik his-tuyg'u - insonning ruhiy kechinmasi bilan bevosita bog'liq hissiyoti bo'lib, uning asosida ma'naviy lazzatlanish qobiliyati shakllanadi. Estetik his-tuyg'u oddiy hissiy bilish, jonli mushohada (sezgi, idrok) shakllaridan farqli ravishda nafosatlikni (estetiklikni) payqay olish, idrok etaolish va undan zavqlanish, lazzatlanish tuyg'usidir. Shu ma'noda u ma'naviy his-tuyg'u hisoblanadi.

Estetik ideal (yunoncha ideal - g'oya, obraz) - estetik qadriyatlarning orzu qilingan, mukammallik darajasidagi obraz tasavvurlarni konkret-hissiy shaklda ifodalovchi ong unsuridir. Estetik idealda nafosatlik, go'zallik, haqiqat, ezgulik bilan o'zaro birlikda mujassamlashgan bo'ladi. Shunga ko'ra unda insonning oliy qadriyat haqidagi azaliy orzu, maqsadlari ifodalanadi.

Estetik faoliyat - estetik bilish (anglash) asosida yuzaga keladigan inson faoliyatining o'ziga xos turidir. Estetik faoliyat estetik ongda Abstraksionizm (yunoncha abstraction - mavhum) - XX asr san'atidagi oqim bo'lib, uning ijodiy metodi real voqelikni unga xos shaql va mazmun birligida emas, balki "sof" mavhumiy shaklda tasvirlashga asoslanadi. Ifodalangan g'oya qarashlarning ro'yobga chiqishi, amaliyotga aylanishi jarayonidir

Etiket (frans. Etiquette) - kishining boshqalar bilan bo'lgan munosabati va bunda o'zini qanday tutish bilan bog'liq xatti-harakatlariga taaluqli umumiy qabul qilingan qoidalar majmuidir. Shunga ko'ra etiket mohiyatan rasmiyatlik (takalluf, mulozamat) xarakteriga ega muomala odobi hisoblanadi. Tafakkur shakllarini bilish - mantiqiy fikr yuritishning zaruriy shartidir.

Etimologiya - u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

Etnogenez - xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

Yaxlitlik paradigmasi - muammoni hal qilish namunasi sifatida qabul qilingan masalani qo'yish falsafiy nazariyasi yoki modeli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2014.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. Farmon, - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // "Xalq so'zi". 15 yanvar 2018 yil.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2016 yil 15 dekabr.
5. Mirziyoev Sh.M. Ilm fan yutuqlari - taraqqiyotning muhim omili // "Xalq so'zi", 2016 yil 31 dekabr.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
7. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-22 jildlar.- T.: O'zbekiston, 1996-2013.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. - T.: 2004.
10. G.Skirberkk, N.Gile. Falsafa tarixi.- T.: 2002.
11. G'arb falsafasi. Q.Nazarov tahriri ostida - T.: Sharq, 2005.
12. Falsafa. E.Yusupov. - T.: 1999.
13. Falsafa: Ma'ruza matnlari. - T.: 2000.
14. Falsafa asoslari: Darslik. - T.: 2005.
15. Falsafa: Darslik. - T.: 2006.
16. Falsafa. M. Axmedova tahriri ostida. - T.: 2006
17. Falsafa: qomusiy lug'at. / Q.Nazarov tahriri ostida. - T.: Sharq, 2004.
18. Falsafa ensiklopedik lug'at. MIL.AVV.bdullaeva tahriri ostida -T.: 2010.
19. Haqiqat manzaralari. S.Jo'raeva tarjimasi.- T.: 2007.
20. Nazarov Q. Aksiologiya - qadriyatlar falsafasi. -T.: O'FMJ, 2004.
21. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. - T.: Universitet, 2005.

22. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. - T.: Akademiya, 2011.
23. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: Universitet, 2005.
24. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya - bilish falsafasi. - T.:“Noshir”, 2011.
25. To'raev B.O. Logika: masalalar va mashqlar. -T., 2009.
26. Xayrullaev M., Haqberdiev M. Mantiq. -T.: O'qituvchi, 1993.
27. SharipovM., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma, -T., 2004.
28. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
29. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). /Darslik. - T.: O'zbekiston, 1995.
30. Olloyorov N.V. Estetika /Uslubiy qo'llanma. - Samarqand. 2004.
31. Otamurodav S. Globalashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
32. G'aybullaev O.M. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. -T.: Chashma print, 2008.
33. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika. 2-nashr. /uslubiy qo'llanma. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
34. Mo'minov I.M. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. -T.: Fan, 1994.
35. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010.
36. www.philosophy.ru.
37. <http://www.intencia.ru>.
38. <http://www.anthropology.ru>
39. <http://www.ido.rudn.ru>.
40. <http://www.falsafa.dc.uz>.
41. <http://www.phenomen.ru>.
42. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.
43. <http://www.filam.ru/sait.phg>.
44. WWW.LOGIK.ru
45. WWW.logic.Pdmi.ras.ru
46. www.Logic.philos.msu.ru
47. <http://www.mgimo.ru/fileserv>
48. <http://www.pacademy.edu.b>
49. <http://www.rags.ru/kaf/fi...>
50. <http://www.ssu.runnet.ru/...>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-mavzu: Falsafaning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Sharq va G'arb falsafasining vujudga kelishi, rivojlanish tarixi	5
2-mavzu: Falsafa tarixida borliq falsafasi. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish amaliyoti: yutuq va kamchiliklar	7
3-mavzu: Falsafa tarixida sivilizatsiyaga turli yondashuvlar tasnifi (al Forobiy, Ibn Xaldun, N.Danilevskiy, O.Shpengler, A.Toynbi). Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Falsafa tarixida inson mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Dialektika rivojlanish xaqidagi ta'limot. Falsafada qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.....	10
4-mavzu: Falsafa tarixida bilishga oid qarashlar evolyusiyasi	12
5-mavzu: Globalashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi. Insoniyat tarixida tarbiya va ta'limning rivojlanish bosqichlari.....	14
6-mavzu: Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Hukmning tarkibi va xususiyatlari	16
7-mavzu: "Etika" fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari. "Estetika" fanining obekti va falsafiy mohiyati. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi: estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari	19
8-mavzu: Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya xudojo'ylik tushunchalarining ma'nosi va ularning o'zaro aloqasi. Diniy e'tiqod va ratsionallik. Islom dini, uning asosiy oqimlari va yo'nalishlari. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik. Islomda nikoh va oilaviy munosabatlar talqini, erkak va ayolning maqomi. Milliy madaniyatlarning diniy madaniyat shakllanishidagi roli. Diniy fanatizmning asoslari va manbalari. Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari	23
9-mavzu: Korrupsiya tushunchasining ma'nosi va shakllanish tarixi. O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari. Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning turlari.....	26
Mavzularga doir testlar	42
GLOSSARIY	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	88

L.R. Usmonova, H. Abdumajidova

FALSAFA

O'quv - uslubiy qo'llanma

“SAMARQAND” nashriyoti

Mas'ul muharrir — Dildora TURDIYEVA

Musahhih — Anvar UMRZOQOV

Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV

Sahifalovchi — Dilshoda ABDLAXATOVA

Dizayner — Davron NURULLAYEV

“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.

Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.

Samarqand shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 3-uy.

Bosishga 22.02.2023 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 7

Bichimi 60x841/16. “Times New Roman” garniturasida. 5,35 bosma taboq.

Adadi: 90 nusxa. Buyurtma raqami: 60/2023

Tel/faks: +998 94 822-22-87, e-mail: sarvarmexroi-baraka@gmail.com

